



iScience[®]

АКТУАЛЬНЫЕ ВЫЗОВЫ СОВРЕМЕННОЙ НАУКИ

СБОРНИК НАУЧНЫХ ТРУДОВ

Выпуск 7(61)

Переяслав
2021



АКТУАЛЬНЫЕ ВЫЗОВЫ СОВРЕМЕННОЙ НАУКИ

LXI Международная научная конференция
26–27 июля 2021 г.

СБОРНИК НАУЧНЫХ ТРУДОВ

ВЫПУСК 7(61)

Переяслав

УДК 001 (082)

ББК 72я43

А43

Главный редактор:

Коцур В.П., доктор исторических наук, профессор, академик Национальной академии педагогических наук Украины

Редколлегия:

| | |
|-----------------------------|--|
| Базалук О.А. | д-р филос. наук, профессор (Украина) |
| Добросок И.И. | д-р пед. наук, профессор (Украина) |
| Кабакбаев С.Ж. | д-р физ.-мат. наук, профессор (Казахстан) |
| Мусабекова Г.Т. | д-р пед. наук, профессор (Казахстан) |
| Смырнов И.Г. | д-р геогр. наук, профессор (Украина) |
| Исак О.В. | д-р социол. наук (Молдова) |
| Лю Бинчян | д-р искусствоведения (КНР) |
| Тамулет В.Н. | д-р ист. наук (Молдова) |
| Брынза С.М. | д-р юрид. наук, профессор (Молдова) |
| Мартынюк Т.В. | д-р искусствоведения (Украина) |
| Тихон А.С. | д-р мед. наук, доцент (Молдова) |
| Горащенко А.Ю. | д-р пед. наук, доцент (Молдова) |
| Алиева-Кенгерли Г.Т. | д-р филол. наук, профессор (Азербайджан) |
| Айдосов А.А. | д-р техн. наук, профессор (Казахстан) |
| Лозова Т.М. | д-р техн. наук, профессор (Украина) |
| Сидоренко О.В. | д-р техн. наук, профессор (Украина) |
| Егиазарян А.К. | д-р пед. наук, профессор (Армения) |
| Алиев З.Г. | д-р аграрных наук, профессор, академик (Азербайджан) |
| Партоев К. | д-р с.-х. наук, профессор (Таджикистан) |
| Цибулько Л.Г. | д-р пед. наук, доцент, профессор (Украина) |
| Баймухамедов М.Ф. | д-р техн. наук, профессор (Казахстан) |
| Хеладзе Н.Д. | канд. хим. наук (Грузия) |
| Таласпаева Ж.С. | канд. филол. наук, профессор (Казахстан) |
| Чернов Б.О. | канд. пед. наук, профессор (Украина) |
| Мартынюк А.К. | канд. искусствоведения (Украина) |
| Воловык Л.М. | канд. геогр. наук (Украина) |
| Ковальська К.В. | канд. ист. наук (Украина) |
| Амрахов В.Т. | канд. экон. наук, доцент (Азербайджан) |
| Мкртчян К.Г. | канд. техн. наук, доцент (Армения) |
| Стати В.А. | канд. юрид. наук, доцент (Молдова) |
| Цибулько Г.Я. | канд. пед. наук, доцент (Украина) |

Актуальные вызовы современной науки // Сб. научных трудов - Переяслав, 2021. - Вып. 7(61) – 53 с.

Языки издания: українська, русский, english, deutsche, español, polski, беларуская, казақша, o'zbek, limba
română, кыргыз тили, Հայերեն

Сборник предназначен для научных работников и преподавателей высших учебных заведений. Может использоваться в учебном процессе, в том числе в процессе обучения аспирантов, подготовки магистров и бакалавров в целях углубленного рассмотрения соответствующих проблем. Все статьи сборника прошли рецензирование, сохраняют авторскую редакцию, всю ответственность за содержание несут авторы.

УДК 001 (082)

ББК 72я43

А43

СОДЕРЖАНИЕ

СЕКЦИЯ: ПЕДАГОГИКА

| | |
|---|----|
| Muradov Muxiddin Qodirovich, | |
| Primov Rashid Toshqulovich (Qarshi, O'zbekiston) | |
| DUTOR IJROCHILIGIDA O'QITUVCHINING KASBIY MAHORATI | 5 |
| Nizomova Muqaddas Baxtiyarovna, Qutliyeva Aziza Olimovna, | |
| Achilova Nozigul Abdug'ofurovna, Omonova Setora Nizomiddin qizi (Qarshi, O'zbekiston) | |
| O'QUV-DIDAKTIK MATERIALLAR HAMDA VOSITALARNI TAYYORLASH VA FOYDALANISH TA'LIM SUFATINI OSHIRISHNING MUHIM OMILI SIFATIDA..... | 8 |
| Tojiboyeva Maloxatxon Muxammadsidiqovna (Andijon, O'zbekiston) | |
| MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA TARBIYACHINING NUTQ MADANIYATI VA UNGA QO'YILGAN PEDAGOGIK TALABLAR | 13 |
| Xamitova Rayxon Axmatovna, | |
| Muhammadiyeva Xurshida Shaydullayevna, | |
| Xolmurodova Zulfizar Ashurovna, Qulmirzayeva Xazina Akram qizi (Qarshi, O'zbekiston) | |
| TA'LIM JARAYONIDA O'QITUVCHI BILAN O'QUVCHILAR HAMKORLIGINING PEDAGOGIK – PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI | 17 |
| Йулдашев Жахонгир Тилакмуратович (Қарши, Ўзбекистон) | |
| ТУРЛИ ХИЛ ФИКРЛАШ БОШЛАНФИЧ СИНФ ЎҚИТУВЧИСИНИНГ ФАОЛИЯТИДА | 21 |

СЕКЦИЯ: ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ НАУКИ

| | |
|--|----|
| Primov Rashid Toshqulovich, | |
| Xodjaniyazov Islambay Atabayevich (Qarshi, O'zbekiston) | |
| MUSIQIY TA'LIMDA PSIXOLOGIK JARAYONLAR | 24 |

СЕКЦИЯ: СОВРЕМЕННЫЕ ИНФОРМАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ

| | |
|--|----|
| Mamirxo'jayev Muhammadamin Mavlonbek o'g'li, | |
| G'aniyev Sanjarbek Fazliddin o'g'li, | |
| To'ychiboyev Abbasjon Eraliyevich (Farg'on'a, O'zbekiston) | |
| AUDIO VA VIDEO MA'LUMOTLARNI KODLASH | 28 |
| Umaraliyev Jamshidbek To'xtasin o'g'li, G 'aniyev Sanjarbek Fazliddin o'g'li, | |
| To'ychiboyev Abbasjon Eraliyevich (Farg'on'a, O'zbekiston) | |
| AUDIO VA VIDEO MA'LUMOTLARNI SIQISH | 31 |

СЕКЦИЯ: ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ НАУКИ

| | |
|---|----|
| Sadikov Erkin (Bukhara, Uzbekistan) | |
| THE ENGLISH LANGUAGE: STANDARD OR NON-STANDARD? | 36 |
| Ниязова Насиба Журабековна (Ташкент, Узбекистан) | |
| ТИПЫ МОНОЛОГИЧЕСКОЙ РЕЧИ В НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ | 38 |

Хашимова Дилдора (Ташкент, Узбекистан)

О РАЗВИТИИ КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ

У СТУДЕНТОВ-ЮРИСТОВ..... 45

ИНФОРМАЦИЯ О СЛЕДУЮЩЕЙ КОНФЕРЕНЦИИ..... 52

СЕКЦИЯ: ПЕДАГОГИКА

Muradov Muxiddin Qodirovich, Primov Rashid Toshqulovich
(Qarshi, O'zbekiston)

DUTOR IJROCHILIGIDA O'QITUVCHINING KASBIY MAHORATI

Annotatsiya. Ushbu maqolada dutor sinfi o'qituvchisining kasbiy mahorati hamda dutor ijrochiligining dastlabki jarayoni haqida fikr mulohazalar bildirilgan.

O'zbek xalqining ma'naviy merosi mazmunida o'zbek milliy musiqamiz ham alovida o'rninga ega. San'at yo'naliشida bilim olayotgan o'quvchi-ijrochi faqat o'zbek xalq musiqasi bilangina cheklanib qolmasdan, qardosh xalqlar yaratgan musiqa asarlari va jahon musiqachilar ijro etadigan musiqalarni o'rganishlari va ularni yuksak darajada mahorat bilan ijro etib musiqa ixlosmandlarini baxramand etishlari lozim.

“Musiqa san'atidagi asosiy faoliyatlardan biri cholg'u ijrochiligidir. Zo'r ijroni tinglab, lazzat, quvonch, ilhom tuyg'ularini his etamiz yoki yunonlar aytganidek, «katarsis» – ichki, ruhiy poklanish va yangilanish jarayonini boshdan kechiramiz.”¹

Abdurauf Fitrat tomonidan ham dutor ijrochilik uslubi qayd etilgan. U «Bu kunlarda bizning eng mashhur dutorchimiz samarqandlik Hoji Abdulaziz qo'lini taxtaga urmay chalg'oni uchun uning dutori havas bilan tinglanadir»², – deb dutor ijrochiligining o'ziga xos jihatlariga e'tibor berib o'tadi.

Musiqa qaysi xalq tomonidan yaratilgan bo'lsa ham, hammaga tushunarli. Uni hammaga tushunarli qilib ijro etish san'atini o'rgatish esa biz o'qituvchilarning vazifamizdir. “Musiqa madaniyatimizda sof ma'nodagi muallim ustozning o'zi, ayni paytda u ham murabbiy, ham sozanda san'atini o'zida mujassamlashtirgan shaxs hisoblanadi. Shu tufayli o'rgatish-o'rganish jarayonining o'ziga xos siru asrorini bilmay turib bu an'ananing xususiyatlarini to'laligicha anglab ololmaymiz”³. Cholg'u asboblari ta'limi orasida dutor ta'limi alohida o'rin tutadi. Musiqa sohasida bilim olayotgan o'quvchi, ijrochi har kuni o'z ustida mustaqil ishlashi lozim.

Buni taxminan quydagicha taqsimlash mumkin:

- 15 daqiqa ochiq torda zarb mashqlarda ishlash.
- 30 daqiqa gammalar va uchtovushliklar ustida ishlash.
- 30 daqiqa etyud va mashqlar bilan ishlash.
- 30 daqiqa asarlardagi murakkab joylar ustida ishlash.

Melizmlar ham shular jumlasiga kiradi.

Bir soat-u 45 daqiqa o'quvchi konsert ijrosi uchun tayyorlanishi kerak bo'lgan badiiy asar ustida ishlashi lozim. Bunday taqsimlashda tinimsiz shug'ullanishi ko'zda tutilmatdi. Ikki soatdan so'ng yana ikki soat yoki har bir soat orasida ozgina dam olinsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Musiqa ijrosini tarbiyalashda dastlab musiqa, so'ngra texnik imkoniyat, undan keyin

¹ Qodirov R.G'. Musiqa psixologiyasi. - T.: Musiqa, 2005. -9 бет

² Fitrat A. «O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi» T.; 1993.28-29-бетлар.

³ Rasultoyev J.K. O'zbek dutor ijrochiligi. T. - 1997. 34-bet

dinamika va xokazo deyish xato bo'ladi. Chunki asarning barcha jihatlari bir vaqtda o'zaro bog'liq holda olib boriladi.

O'quvchining musiqa sohasiga qo'yan birinchi qadamidan boshlab butun ijodiy faoliyat davomida bu jarayon davom etadi. Kichik shakldagi badiiy asarlarni o'quvchi qancha ko'p ijob etsa, unda kompozitorlar va bastakorlar uslubi haqida tushunchalar paydo bo'ladi.

Musiqa asarining mazmunini diqqat bilan aniq va chuqur tahsil qilsak, bu sohaning o'z qonuniyatlari borligini ko'ramiz.

O'quvchining notani varaqdan o'qib chalishi ham ijro mahoratidagi eng zarur yutug'i hisoblanadi. O'quvchi nota o'qishi uchun kerakli bo'lgan bilimlarni egallagandan so'ng, avval osonroq bo'lgan asarlarni ko'rib chiqishi zarur.

Shuning uchun dutorda ijrochilik mahoratini shakllantirishni ma'lum maqsad asosida tizimli ravisgda oddiydan murakkablik tomon bosqichma-bosqich amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. Dutorda chalinadigan mashqlarning maqsadli bo'lishi zarur. Avvalo asar tanlanadi, so'ngra shu asarning bir qiyin bo'lgan qismi mashq uchun tanlash mumkin. Musiqa asarlari ustida ishslash jarayonini 3 ta asosiy bosqichga bo'lish mumkin.

Birinchi bosqichda asarning mazmuni.(asar mazmunini tanishtirishdagi ba'zi aniqliklar):

- asar qaysi musiqa janriga taalluqli (pyesa, poema, vals)
- asarning shakli (bir qismini ko'p qismili, sonata,maqom,variatsiya va hokazo)
- asarning xarakteri (sho'x, g'amgin, lirik, humoristik, mardonavor va h.k.)

Bulardan tashqari asarning qaysi, kim tomonidan yozilganligi, yaratuvchi bastakor yoki kompozitorning uslubi yoki yo'nalishini, asarni ijro etuvchining ijrochilik psixologiyasi; lirikaga xosmi yoki oyinqaroqmi, milanxolikmi? hamda ijodiy fantaziyasining darajasi mazkur asar muallifiga o'quvchining munosabatini o'rganish lozim.

Ikkinci bosqichda asarning nota matnini to'g'ri ijro etish talab etiladi. Ijroning palapartish bo'lmasligi, mukammalligi uchun quyidagilarga amal qilish zarur:

1. Balandlik aniq bo'lishi.
2. Tovush uzunligi aniq bo'lishi.
3. Muallif yoki muharrir ko'satmalari, vazn aniqligi, sur'ati, dinamik aniqlik, zarblar aniqligini bilish.
4. Alovida ishslash talab qilinadigan qismlarni aniqlash.
5. Har bir epizodning maqsadini aniqlash.

Musiqa ham boshqa jarayonlar kabi harakatda bo'ladi,ya'ni,o'zining ko'tarilishi va tushishi holatlari bo'ladi.

Uchinchi bosqich musiqa asarlari ustida ishslashning xulosa bosqichi bo'lib o'quvchi jo'rnavoz bilan chalib chiqishi lozim. Bu vaqtda asarni yoddan chalish maqsadga muvofiqdir. Ijro jarayonida mazmunli va mantiqli emotsiya, his-hayajon bilan fikrlab, asarni chuqur his etgan holda vaznni asar talabida, badiiy, erkin, kerakli darajada ijodkorlik bilan, o'ziga ishongan holda ijro etishga erishish lozim.

Asar ijrosini to'liq egallagandan so'ng bajariladigan vazifalar:

- Notaga qarab asbobda chalish.
- Notasiz asbobda chalish.
- Nota bilan asbobda ko'rib chiqish.
- Notasiz, asbobsiz fikrda chalib chiqish.

O'zbek xalq musiqasida va an'anaviy ijrochilida og'izdan og'izga o'tib yuqori savyiyada ijro etib kelinayotgan asarlarni o'rganishda texnik vositalardan foydalanish, o'qituvchi o'zi ham ijro etib eshitishning roli katta. O'quvchiga xirgoyi qilishni o'rgatish ham yaxshi samara beradi. Faqat notadagi asarni ijro et, deyish talabaning imkoniyatlarini cheklab qo'yadi. Dutor sinfi o'qituvchisi o'quvchiga asar tanlaganda uning zarblari, imkoniyatlarini ham ko'zda tutish kerak. Bunda oddiydan murakkabgacha borish metodi asos bo'lib xizmat qiladi.

Dutor ta'limingining mazmuni o'quvchilarning ijodiy ijrochilik qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan. Shu tufayli ijobiy natijalarga erishish yo'llarini izlash savodli, madaniyatli, chuqr bilimli o'qituvchi shaxsiga bog'liqdir.

ADABIYOTLAR.

1. Qodirov R.G'. Musiqa psixologiyasi. -T.: Musiqa, 2005. - 80 bet.
2. Fitrat. A. «O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi» T.; 1993. – 56-bet.
3. Rasultoyev J. O'zbek dutor ijrochiligi. – T., «O'qituvchi», 1997. 112 bet

**Nizomova Muqaddas Baxtiyarovna, Qutliyeva Aziza Olimovna,
Achilova Nozигul Abdug'ofurovna, Omonova Setora Nizomiddin qizi
(Qarshi, O'zbekiston)**

O'QUV-DIDAKTIK MATERIALLAR HAMDA VOSITALARNI TAYYORLASH VA FOYDALANISH TA'LIM SUFATINI OSHIRISHNING MUHIM OMILI SIFATIDA

Ta'lism-tarbiya jarayonining sifati va samaradorligini oshirish ko'p jihatdan ta'lism vositalari bilan qay darajada ta'minlanganligiga bog'liq bo'ladi.

Ta'lism vositalari deb – o'r ganilish lozim bo'lgan o'quv materialni talabalar ongiga yetkazish uchun xizmat qiluvchi vositalar majmuasiga aytildi.

Ta'lism vositalarining xususiyatlarga ko'ra 3 turga ajratish mumkin: bosma, texnik va real vositalar

Ta'lism vositalarining xususiyatlarga ko'ra matnli vositalar; tasvirli vositalar; audiovizual vositalar; yordamchi (jihoz) vositalar; modelli vositalar; haqiqiy vositalarga bo'lish mumkin.

Nazariy darslarda ta'lism beruvchilar asosan matnli va yordamchi vositalardan, misol uchun darsliklar va tarqatma materiallardan va texnik vositalardan foydalanadilar.

Amaliy mashg'ulotlarda ular ko'proq tasvirli va real vositalardan, ya'ni eskiz, chizmalar, asbob-uskunalardan foydalanadilar.

Ovoz va tovushli (audio), shuningdek, tasviyiy tasavvurlarni shakllantiradigan audiovizual vositalar jarayonlar va vazifalar to'grisidagi keng qamrovli real tasavvurlarni vujudga keltiradi.

Yordamchi vositalar buning aksi o'laroq tasvir va matnlarni yozib olish va saqlash imkonini beradi. Ular doska, flipchart, pinbord doskasi, kodoskop, videoproektor kabiladir.

Ish sohasiga tegishli real narsalar, ya'ni mahsulotlar, asboblar va boshqalar dars paytida didaktik funksiyaga ega bo'lsa, o'quv vositasi sifatida qo'llanilishi mumkin.

Ta'lism vositalaridan foydalanishda ularni muayyan maqsad, mo'ljallangan guruh, maxsus soha va metodlarga mos holda tanlash muhim o'r in tutadi. Bundan tashqari ta'lism beruvchi o'quv va ko'rgazmali vositalarni ishlata olishni va ulardan maqsadga muvofiq va oqilona tarzda foydalanishni bilishi kerak. Texnik vositalardan foydalanayotganda yuzaga keladigan texnik muammolarni hal qila oladigan bo'lishi lozim. Ta'lism jarayonida texnik vositalardan foydalanish juda muhim o'r in egallaydi. Ushbu vositalar yordamida mashg'ulotlarni zamonaviy talablarga javob beradigan tarzda olib borish hamda ta'lism oluvchilarning diqqatini jalb etishda keng foydalanish mumkin.

Texnik vositalar ma'lumotlarni vizuallashtirishga yordam berib, kerakli tasvir va matnlarni yozib olish va saqlash imkonini beradi. Ta'lism beruvchilar doska tasvirlari, flipchart tasvirlari va kodoskop slaydlari kabi vizual vositalarni o'zlarini ishlab chiqqadilar.

SHu sababli bunday vositalardan foydalanish qoidalari, ularning afzallik va kamchiliklarini hisobga olish lozim. Quyidagi materiallarda bo'r doska, flipchart, kodoskop, pinbord doskasi va videoproektor kabi texnik vositalardan foydalanish bo'yicha yo'l-yo'riqlar berilgan.

Bo'r doska eng qadimgi, arzon va boshqalarga nisbatan ko'proq ishlatiladigan vosita hisoblansa kerak.

Mana ko'p yillardirki, u nazariy va amaliy darslarda qo'llaniladigan texnik vosita hisoblanadi. Bugungi televizorlar va kompyuterlar dunyosida doska sinfdagi eng ishonchli va ko'proq qo'llaniladigan o'quv vositasidir.

Doskadan foydalanishni ham rejalashtirib olish zarur. Buning uchun o'tiladigan mavzu bo'yicha doskaga yoziladigan matn va chizmalar tartib bilan rejalashtirib, qog'ozga xomaki varianti ishlab chiqiladi.

Doskadan foydalanishning asosiy qoidalari

- Barcha yordamchi vositalarni oldindan tayyorlab qo'yish
- Doskaga aniq va orfografik xatolarsiz yozish
- Matn yoki chizmalar oraliqlarini bir xil taqsimlash
- Rangli bo'rlarni didaktik talablarga mos kelgan holatda ishlatish
- Ta'lim oluvchilar bilan doim «ko'z aloqasi»ni saqlab turish
- Faqat bir tomonga emas, barcha ta'lim oluvchilarga qarab gapirish
- O'zlashtirish natijalarini tekshirib turish
- Muhim bo'lgan ma'lumotlarga alohida e'tiborni yordamchi vositalar yordamida qaratish

Doskaning afzallikkabi:

- arzonligi;
- ma'lumotlarni taqdimot qilish uchun qulayligi;
- yozuvlar yozish uchun ishlatalishi;
- asosiy punktlarni tushuntirish uchun foydalanish mumkinligi;
- chizma va grafiklarni chizib ko'rsatish mumkinligi;
- diqqatni jalb qilish uchun foydalanishi.

Doskadan foydalanishdagi kamchiliklar:

- doskaga diqqat bilan yozish ta'lim beruvchidan doskaga qarashini talab qiladi, buning uchun u ta'lim oluvchilarga teskarai o'girilishga majbur bo'ladi;
- doskadagi yozuv (tasvir) saqlanishi mumkin emas va shuning uchun uni qayta qo'llash mumkin emas;
- doskaga yozish ko'p vaqtini talab qiladi.

Flipchart- doskaga juda o'xshashligiga qaramasdan, ko'pgina farqlar ham mavjud.

Flipchartning eng asosiy qulayligi – bu matnni o'chirmsandan yozib ketaverish imkoniyatining borligi, ya'ni joy etishmasligidan yozilgan yozuvlarni o'chirishga hojat yo'q, faqat yetarlicha qog'oz bo'lishi talab yetiladi. Shunday qilib, barcha fikr-mulohazalarni saqlash mumkin, hatto bir necha kundan so'ng bu qog'ozni yana osib qo'yish va munozarani davom yettirish mumkin.

Flipchartning boshqa qulayligi, sinfdagi devor yoki doskaga birin-ketin hamma varaqlarini yopishtirish imkoniyati hisoblanadi. Butun guruh ishining natijalarini bir paytda ko'rish, taqqoslash va saqlab qolishning bunga teng boshqa imkoniyati yo'q.

Kodoskop uchun sath (ekran), shuningdek, pylonka-slaydlar kerak.

Kodoskop ta'lim beruvchi uchun eng yuqori darajadagi taqdimot imkoniyatini beradi. O'quv jarayonini bu vositasiz tasavvur qilish mumkin emas. Asosiy qulayligi shundaki, slaydlarni kompyuterda yoki shuningdek, qo'lda professional darajada tayyorlash mumkin. Ulardan istalgan vaqtida foydalanish va ish o'rni o'zgorganida boshqa joyga o'tkazish mumkin.

Ammo kodoskopning faqat sifati emas (yorug'lik kuchi), balki ishlab chiqilgan slaydlarning sifati ham muhimdir.

Slaydlarni tayyorlash uchun quyidagi materiallar kerak bo'ladi:

- acetatl qog'oz – sun'iy toladan qilingan tiniq qog'oz;
- alohida qoplamaga ega, nusxalashtirish mumkin bo'lgan slaydlar;
- slaydlarga yo'zish uchun flomasterlar (doimiy yoki suv bilan o'chirish mumkin bo'lgan);
- slaydlarni tozalash uchun spirit;
- simvolli asboblar (shablonlar, chizg'ich va shu kabilar).

Kodoskopdan foydalanishdan oldin uning bexato ishlashini va tozaligini tekshirish lozim.

Slaydlar taqdimot qilinishidan avval tartib bilan mantiqiy ketma-ketlikda tayyorlab qo'yilishi maqsadga muvofiqli.

Taqdimot davomida ekranga emas, balki ta'lrim oluvchilarga qarab nutq tezligiga e'tibor bergan holda gapirish kerak. Ta'lrim oluvchilar bilan doim «ko'z aloqasi»ni saqlab turish va barcha ta'lrim oluvchilarga qarab gapirish lozim.

Slaydlarga ishlov berishda shrift turi va shrift kattaligi bo'yicha qoidalarga riosa qilib, yaxshi o'qilishi mumkin bo'lgan slaydlarni ishlab chiqish kerak. Bundan tashqari slaydlarni tayyorlashda ularning dizayniga ham katta e'tibor berish, ranglarni haddan tashqari ko'p ishlatmaslik lozim.

Kodoskopning qulayliklari:

- kodoskopni boshqa joyga siljitim mumkinligi;
- foydalanishning qulayligi;
- slaydlarni qo'lida, fotonusxa va kompyuter yordamida tayyorlash mumkin;
- slaydlarning katta guruhga ko'rinarli bo'lishi;
- bir marta tayyorlab, ulardan bir necha bor foydalanish mumkinligi;
- rangli tasvirni qo'llash mumkinligi;
- ta'lrim beruvchi ta'lrim oluvchilar bilan «ko'z aloqasi»ni doimo saqlab turishi mumkinligi.

Kodoskopning kamchiliklari:

- kodoskop doska yoki flipchartga qaraganda qimmatroq;
- ko'pincha takrorlanadigan xato: bir slaydga haddan tashqari ko'p ma'lumot yoziladi;
- slayd ustida to'grilash ko'pincha murakkab (kodoskop nurida doimo ko'rindi);
- ranglardan haddan tashqari ko'p foydalanish;
- elektr energiyasini talab qiladi.

“Pinbord” inglizcha so'z bo'lib, (pin-mahkamlash, bord-doska) doskaga mahkamlash degan ma'noni anglatadi.

Qoidaga ko'ra, pinbord doskasi ustiga o'rash qog'oz tortiladi va qo'shimcha kerakli material sifatida turli rang va shakldagi kartochkalar bo'lishini talab qiladi. Ular pinbord doskasiga ignalar bilan mahkamlanadi. Ishni tugatgandan so'ng kartochkalarni o'rash qog'oziga yopishtirish va ularni navbatdag'i tadbirlar uchun qo'llash mumkin. Kartochkalar maxsus rangli flomasterlar yoki markerlar bilan yoziladi. Bu vosita asosan yig'ilishlarda muhim o'r'in egallaydi, chunki bu vosita yordamida qarorlar, muammolarni ishlab chiqish va guruhiy bahs-munozaralarni boshqarishni ko'rgazmali qilish mumkin.

Pinbord doskasining afzalliklari:

- pinbord doskasini siljitim mumkinligi;
- ma'lumotlarni doskaga mustahkamlash imkoniyati;
- kartochkalarni guruhlash imkoniyati;
- turli rangli qog'ozlardan foydalanish mumkinligi.

Pinbord doskasining kamchiligi:

- ko'p qog'oz talab etilishi;
- kartochkadagi yozuvlarning turli-tumanligi.

Har bir ta'lim vositasi talab darajasida ishlab chiqilib, o'z o'rniда va samarali foydalanilsa, ta'lim jarayonida mazmunni o'zlashtirishga katta yordam beradi. Ta'lim jarayonidagi eng muhim vositalar yuqorida ta'rif berilgan texnik vositalar hisoblanadi. Bu vositalar dars jarayonini ko'rgazmali qilishga, o'quv materialining o'zlashtirilishini yengillashtirishga va ta'lim oluvchilarning motivatsiyasini oshirishga xizmat qiladi. "Yuz marta gapirgandan ko'ra, bir marta ko'rgan afzal" degan xalq iborasi bunga yaqqol misol bo'ladi. Ko'rgazmalilik, tushunarlik va misol-namunalardan foydalanish kabi didaktik tamoyillar bu iboraga javob beradi. Chunki bu vositalardan foydalanishning mohiyati, ta'lim oluvchilarda bilimlarni ko'rgazmali va imkon qadar real hayotga yaqin holda shakllantirishdan iboratdir.

Tarqatma materiallarni tayyorlash bo'yicha tavsiyalar: bir mavzu ta'lim oluvchilarga haddan tashqari ko'p tarqatma materiallar bermang; sarlavhalarni bosh harflar bilan yozing, bir mashg'ulot uchun ikkita tarqatma material zarur bo'lsa, ularga kod-nom berib, ularni ajratishni osonlashtiring; matn shrifti 12 dan kichik bo'lmasligi kerak; bir betda 80 tadan ko'p belgi (harf, qavs, undov belgisi va h.k.) ishlatmang; matnlar tushunarli, qisqa va oddiy bo'lishi kerak; varaq dizayni e'tiborni o'ziga tortishi kerak.

Slaydlar tayyorlash bo'yicha tavsiyalar: har bir slaydda sarlavha bo'lishi kerak – jumla tuzishda aniq va lo'nda fikringizni bayon eting; ma'lumotlarning ketma-ketligini ta'minlang; slayd tayyorlashda telegraf usulidan foydalaning; chalkashtiruvchi iboralarni kiritmang; ma'lumotlar ko'pligi tahsil oluvchilarning aqliy zo'riqishiga olib kelishi mumkin; har bir slaydda so'z birikmalari 7-8 qatordan oshmasligi kerak; slayd ranglarini tanlash – slayd tayyorlashda och ranglardan foydalanish; slayd foniga to'q ranglarni ishlatish; slayd yozuviga to'q ranglarni ishlatish; to'q ko'k va yashil ranglardan qora rang o'rniда foydalanish; to'q ranglarni katta hajmda ishlatmaslik; sabzirang tusdagi ranglar ishtirokchilarning kayfiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishini hisobga olish; qizil rangni faqat biror elementga urg'u berish uchun ishlatish; slayd tayyorlashdag'i xatoliklar – ko'p ma'lumotlarni tartibsiz joylashtirish; kir slayd (barmoq izlari) ni qo'llash; juda mayda harflarda yozish; taqdimotda rasmlardan foydalanmaslik; uyg'unlikning yetishmasligi.

Taqdimotning asosiy maqsadi – diqqatni to'plash, qiziqtirish, ishontirishdir. Taqdimotchining vazifasi – mavzuga tayyorlanishi; auditoriyaga yetkaza olishi; ta'lim vositalaridan to'g'ri foydalana olishidir. Taqdimotdan o'quv jarayonida foydalanish orqali ko'rgazmalilik, vaqtini tejash, motivatsiya oshirish, tizimlilik, samarali natijaga erishiladi.

Taqdimotni olib borishda quyidagi qoidalarga rioya etiladi: kiyinish madaniyati yaxshi bo'lsin, taqdimotni yaxshi kayfiyatda boshlash va yakunlash, nutq (so'zlash usuli, ritorika) ravon bo'lsin, harakatlar bilan ifodalansin (jetsikulyatsiya), vaqt taqsimotiga amal qilinsin, auditoriya bilan vizual aloqani yo'qotmaslik, o'zingizni ishonchli va erkin tutish; harakatlari bir maromda va qo'llaringiz old tomonda erkin bo'lishi, taqdimot vaqtida bir joyda turib qolmaslik, auditoriyaga

qarab gapirish, auditoriyaga orqa bilan turmaslik, auditoriya-dagilarning diqqatini ko'rgazmalarga yo'naltirish, haddan ortiq ko'p ma'lumotlar bermaslik, muhim ma'lumotlarni takrorlash, taqdimotni shoshilmasdan, bafurja o'tkazishga harakat qilish, taqdimot o'tkazilayotganda ekran ni to'sib qo'ymaslik, berilayotgan materialni qisqa va lo'nda bayon etish; misol keltirish va taqqoslash, "Men" dan ko'ra "Biz" so'zini ko'proq ishlatish, slaydlarni o'zgartirayotganda izoh berib borish, nutq so'zlash qoidalari, raxon til melodikasi, nutq tempi (ovojni baland va past pardalarda o'zgartirib turish), auditoriyaga qarab gapirish; so'z bo'ginlarini to'lq talaffuz qilish, taqdimotni olib borilishida man etiladi: auditoriya bilan vizual aloqani yo'qotish; beharakat ko'rinishda bo'lish, asabiyashish, ortiqcha, behuda harakatlarni qilish kabilarga rioya etiladi.

Shuningdek, taqdimotni olib borishda texnik vositalaridan foydalanishda esa quyidagi qoidalariga: xona sharoiti va texnik vositalarning sozligini tekshirish; texnik nosozliklarga doimo tayyor turish; ekranda tasvirning tushishini tekshirish; proektor ishiga xalaqit beradigan jihozlarni olib qo'yish; taqdimot uchun mo'ljallangan dasturlardan foydalanish, auditoriya diqqatini ko'rgazmalarga maqsadli yo'naltirish, taqdimot jarayonida ekrandan emas, kompyuter monitoridan foydalanish, ekrandagi tasvirlangan matnlarni o'qimasdan, o'z so'zingiz bilan ifodalash maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. L. Beknazarova "O'qituvchi va o'quvchi hamkorligining psixologik xususiyatlari" Toshkent 2008 yil
2. Davletshin "Zamonaviy maktab o'qituvchisi psixologiyasi".
3. Malla Ochilov "Muallim – qalb me'mori" 2001 yil

**Tojiboyeva Maloxatxon Muxammadsidiqovna
(Andijon, O'zbekiston)**

**MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA TARBIYACHINING NUTQ MADANIYATI VA
UNGA QO'YILGAN PEDAGOGIK TALABLAR**

Tayanch tushunchalar: nutq, malaka, texnologiya, ta'lif, notiqlik, til, pedagogik talab, amaliy ko'nikma, qobiliyat

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev tomonidan maktabgacha ta'lif tizimidagi islohotlarga yangicha yondashilmogda, mazkur islohotlarning zaminida maktabgacha ta'lif tashkilotlari tarmog'ini hozirgi zamон talablari va standartlari asosida rivojlantirish, ularni rekonstruksiya va modernizatsiya qilishga qaratilayotgan e'tibor zamirida ham kelajagimiz egalarining hech kimdan kam bo'lmay ulg'ayishlari hamda buyuk ajddolarga munosib voris bo'lib voyaga yetishlarini ta'minlashdek ezgu maqsad mujassam.

Xususan, hujjatlarda bugungi kundagi hayotiy talab va ehtiyojlar, sohada yechimini kutayotgan masalalar hamda hali ishga solinmagan imkoniyatlar hisobga olinganligi barchamizni quvontiradi, chunki, biz o'z oldimizga farzandlarimizning har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish maqsadini qo'yan ekanmiz, shuni chuqur anglashimiz kerakki, bolalarga ta'lif-tarbiya berishning murakkab vazifalarini hal etish murabbiylardan kasbiy mahoratni, iste'dodni, tajribani va madaniyatni talab etishi, shu bilan birga tarbiyachi hozirgi zamон pedagogik texnologiyalarini qo'llay olishi, zamonaviy axborot texnologiyalardan xabardor bo'lishi, eng asosiysi esa na'munali, sifatlari nutq egasi bo'lishi pedagogik hamda hayotiy zaruriyatdir. Rim notiqlik maktabining buyuk vakili Mark Fabiy Kvintilian o'zining "Notiq bilimi haqidা" asarida bilimdonlikni notiqlikning birinchi sharti qilib qo'yadi. Kvintilian notiqlikka doir bilimni juda yoshlikdan o'rgana borish kerak, deydi. Nutqning tinglovchi uchun tushunarli bo'lishiga katta ahamiyat beradi. U: "Sen shunday so'zlaginki, seni har bir kishi tushuna olsin», - degan edi. Darhaqiqat, inson bilim darajasi, uning dunyoqarash chegarasi albatta uning tomonidan amalga oshirilayotgan nutqida namoyon bo'ladi. Inson qachon na'munali nutq sohibi bo'la oladi, qachonki insонning hayotiy tajribasi davomida to'planib boradigan ijtimoiy ong shakllari yuqori ravishda o'sib borsa ana shu natijaga ega bo'ladi. Aynan mana shu holatlarni hisobga olgan o'zbek xalqi qadimdanoq nutqqa, unga qo'yiladigan talablarga o'zlarining jiddiy e'tiborlarini qaratib kelg'anlar.

Nutq madaniyati hozirgi davr tilshunosligi oldida turgan eng katta muammolardan biri ekanligi barchamizga ma'lum. Zamonaviy axborot texnologiyalar, ijtimoiy tarmoqlar xurujii inson ma'naviyatiga, ruhiyatiga, shu bilan birga uning nutqiga salbiy ta'sir o'tkazib kelmoqda. Bu muammoni hal etish umum madaniyatimiz taraqqiyoti, shuningdek, umumiy o'rta ta'lif, olyi ta'lif, eng asosiy ta'lif o'chogi bo'lgan maktabgacha ta'lif tashkiloti pedagog-xodimlarining yuksak saviyasiga, shu bilan birga, uni ifoda etuvchi nutqiga bo'g'liq bo'ladi. Xo'sh, pedagogning nutqi qanday bo'lishi kerak, va unga qo'yilgan pedagogik talablар nimalardan iborat?

Bizga ma'lumki, barcha kasblar orasida tarbiyachilik kasbi o'zgacha va muhim ijtimoiy ahamiyat kasb etadi. Zero, tarbiyachi yosh avlod qalbi kamolotining me'mori, yoshlarga ta'lif-

tarbiya beruvchi insondir. Bugungi kunda u yoshlarni goyaviy - siyosiy jihatdan chiniqtirib, tabiat, jamiyat, ijtimoiy hayot, tafakkur taraqqiyoti qonuniyatlarini o'rgatadi, bolalarni mehnat faoliyatiga tayyorlab, kasb-hunar sirlarini puxta egallashlarida ko'maklashadi va jamiyat uchun muhim bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatlarni hal etadi. Ana shu ma'suliyat tarbiyachidan o'z kasbining mohir ustasi bo'lismi, tarbiyalanuvchilarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatib, ularning qiziqishi, qobiliyati, iste'dodi, e'tiqodi va amaly ko'nikmalarini har tomonlama rivojlantirish yo'llarini izlab topadigan kasb egasi bo'lismi talab etadi.

Buning uchun doimo tarbiyachi kasbiy mahoratini, ko'nikma va malakalarini oshirib borish, gamxo'rlik qilish, unga zarur shart - sharoitlar yaratish, tarbiyalanuvchining ijodiy tashabbuskorligini muntazam oshirib borishga ko'maklashish barobarida, albatta uning nutqiy malakasi yuksak darajada bo'lishi muhim ahamiyat kasb etishi lozim. Nutq madaniyati – tilning tunganmas boyligini egallashdir. Nutq madaniyatini egallash orqali kishi yetuklik sari bir qadam tashlagan bo'ladi. Insoniyat umummadaniyatining katta tarkibiy qismini nutq madaniyati tashkil etadi⁴.

Jamiyatimizning har bir a'zosi, har qanday mutaxassis, zamon bilan hamqadam har qanday kadr, eng avvalo, o'z ona tilining sadoqatli sohibi bo'limg'i lozim. Ona tiliga chinakam sohib bo'lmoqning bosh sharti esa uning tunganmas imkoniyatlarini tugal egallamoq, ya'ni fikrni mustaqil, ravon, go'zal va lo'nda ifoda eta olmoqdan iborat nutqiy madaniyat malakalarini shakllantirmoqdir. Zotan, nutq madaniyati tildan bermalol va maqsadga o'ta muvofiq tarzda foydalana olishni ta'minlaydigan ko'nikma, malaka va bilimlarning jami demakdir. Nutq madaniyati hozirgi davr tilshunoslik fanining dolzarb muammolaridan biridir. Bu muammoni hal etish umummadaniyatimiz taraqqiyoti, shuningdek, oliy maktablarda, umumiy o'rta ta'lim mакtabлар shu bilan birga, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida dars o'tish jarayonini yaxshilash bilan ham bogliq.

Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev joriy yilda Oliy Majlisga va O'zbekiston xalqiga qilgan Murojaatnomasida: "Har qanday jamiyat taraqqiyotida uning kelajagini ta'minlaydigan yosh avlodning sog'lom va barkamol bo'lib voyaga yetishida ta'lim hal qiluvchi o'r'in tutadi. Biz o'z oldimizga mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishdek ulug' maqsadni qo'yan ekanmiz, buning uchun yangi Xorazmiylar, Beruniylar, Ibn Sinolar, Mirzo Ulug'beklar, Navoiy va Boburlarni tarbiyalab beradigan muhit va sharoitlarni yaratishimiz kerak. Bunda, avvalo, ta'lim va tarbiyani rivojlantirish, sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, ilm-fan va innovatsiyalarni taraqqiy ettirish milliy g'oyamizning asosiy ustunlari bo'lib, xizmat qilishi lozim", degan fikrlari ta'lim tizimida, xususan, maktabgacha ta'lim tizimida faoliyat olib borayotgan pedagog- xodimlarning qalbini yana bir bor junbushga keltirdi. Muhtaram Prezidentimiz Murojaatnomasida ta'kidlab o'tganlaridek, bugungi kun Navoiylarini, Mirzo Ulug'beklarini, Boburlarini tarbiyalash uchun ularga ta'lim beruvchi pedagoglarning oldiga ulkan mas'uliyat yuklaydi. Bu mas'uliyat tarbiyachilarning zamon bilan hamnafas bo'lislardan, ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-axloqiy boy, shu bilan bilan birga, namunalni nutq ko'nikmasiga ega ekanligida ko'rinaldi. O'z fikrini mustaqil, ona tilida ravon, go'zal va lo'nda ifoda eta olmaydigan mutaxassisni bugun tushunish ham, oqlash ham qiyin.

Sharqining buyuk allomasi Kaykovus "Qobusnom"da shunday bir ibratli hikoyat

⁴ Х. Аҳмедова. "Ўқитувчи нутқи маданияти" (Маъруза матнлари). Қўйон, 2003, 30–31-бетлар.

keltiradi: Bir kecha xalifa Xorun ar-Rashid tush ko'radi, tushida uning barcha tishlari to'kilib ketgan emish. Xalifa tongda munajjim (tushni ta'bir qiluvchi)dan tushining ma'nosini so'radi. Munajjim shunday deydi: "Ey amiral mo'minin, sendan oldin barcha yaqinlarining, qarindoshurug'laring o'ladi. Sendan boshqa hech kim qolmaydi". Bu so'zni eshitgan Xorun ar-Rashid "Mening yuzimga bunday qayg'uli so'zni aytding. Mening barcha qarindoshlarim o'lsa, so'ngra men qanday ishga yaraymanu qanday yashayman?" – deydi darg'azab bo'lib va uni yuz tayoq bilan jazolashni buyuradi. Keyin boshqa munajjim chaqirib, undan tushining ta'birlini so'radı. Munajjim bunday deydi: "Ey amiral mo'minin, sening umring barcha qarindoshlarining umridanda uzoq bo'ladi". Shunda Xorun ar-Rashid deydi: "Barcha aqlning yo'li birdir va ikkovining ta'biring negizi bir yerga borib taqaladi, ammo bu ibora bilan u iboraning orasida farq bag'oyat ko'pdir". So'ng munajjim yuz tillo berishni buyuradi. Demakki, tilda bir fikrni bir qancha shaklu shamoyillarda ifodalash imkoniyatlari mavjud, aynan qaysi shaklni tanlash, muayyan fikr va muloqot vaziyati uchun eng uyg'un ifodani topa bilish nutq egasining tilga sohiblik darajasi, mahoratu malakasi, ma'rifatu ma'naviyatiga bog'liq. Muloqot vaziyatini yetarlicha baholamasdan turib, fikr ifodasi uchun tanlangan lisoniy libos, har qancha to'g'ri va go'zal bo'lmasin, maqsad nishoniga yetib bora olmaydi. Bunday ifoda hatto boshga balo keltirishi ham mumkin.

Maktabgacha ta'limga tashkiloti tarbiyachisi har doim shuni esda tutish kerakki, nutq bu maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda jismoniy, ruhiy omillar rivojlanishiga ko'maklashuvchi vositadir. Tarbiyachi bolaga ta'limga-tarbiya berish bilan bir vaqtida uni keyingi ta'limga jarayoniga, ya'ni maktabda muvaffaqiyatlari o'qishlari uchun zamin hozirlaydi. Maktabgacha ta'limga tashkilotining barcha ta'limga-tarbiyaviy jarayonlarda bolalarga ona tilini o'rgatish orqali ularning nutqi o'stiriladi. Demak, tarbiyachining nutqi bola uchun asos vazifasini o'tar ekan, unga qo'yilgan pedagogik talablarga albatta e'tibor berish kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 29 dekabrda "2017-2021 yillarda maktabgacha ta'limga tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'grisida"gi PQ-2707-sonli Qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 9 sentyabrdagi "Maktabgacha ta'limga tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'grisida"gi PQ-3261-sonli Qarori.
3. Bolalar entsiklopediyasi. 2-nashr. - T.: "O'zyekiston milliy entsiklopediyasi". Davlat ilmiy nashriyoti. 2002. -664 b.
4. Boymatova A.G., Djumabayeva M.B., Aliyeva K.S. "Maktabgacha yoshdagagi bolalarning psixologik xususiyatlari" moduli bo'yicha O'quv-uslubiy majmua. -T.: TDPU, 2018.
5. Volkov, B. S. Psixologiya detstva: uchebno-metod. posobie / B. S.Volkov, N. V. Volkova. - M.: APO, 1997. - 152 s.
6. Do'stmuhamedova SH.A., Nishanova Z.T. va boshqalar. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya. -T.: Fan va texnologiyalar, 2013.
7. Nishanova Z.T., Alimova G.K. Bolalar psixologiyasi va psixodiagnostikasi. -T.: TDPU, 2017.
8. Qayumova N. Maktabgacha pedagogika. O'quv qo'llanma. Toshkent-2013

9. Maktabgacha pedagogika. O'quv-uslubiy majmua. Termiz-2018
10. P. Xo'jayev, K.D. Raximqulov, B.B. Nigmonov Harakatli o'yinlar va uni o'qitish metodikasi. Toshkent-2010

**Xamitova Rayxon Axmatovna, Muhammadiyeva Xurshida Shaydullayevna,
Xolmurodova Zulfizar Ashurovna, Qulmirzayeva Xazina Akram qizi
(Qarshi, O'zbekiston)**

TA'LIM JARAYONIDA O'QITUVCHI BILAN O'QUVCHILAR HAMKORLIGINING PEDAGOGIK – PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Haqqoni tarixni bilmasdan turib esa o'zlikni anglash mumkin emas. O'zlikni anglash tarixni bilishdan boshlanadi". Xalqimiz tarixan bitmas-tuganmas madaniy merosga, betakror etnopsixologik xususiyatlarga, an'ana va urf-odatlarga ega. Bu, ayniqsa, ta'limiyl va tarbiyaviy qarashlarda o'z ifodasini topgan.

Darhaqiqat, Sharqning buyuk allomalarini va ma'rifatparvarlari hisoblangan Al-Xorazmiy, Al-Forobiy, Al-Beruniy, Ibn Sino, Zarnujiy, Ahmad Yassaviy, Kaykovus, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Mahmud Qoshg'ariy, Mirzo Ulug'bek, Ali Qushchi, Lutfiy, Jomiy, Alisher Navoiy, Ahmad Donish, Furqat, Sadreddin Ayniy, Abdulla Avloniy va boshqalarning asarlarida xalqimizning turmush tarzi, madaniyati, ilg'or ta'limiyl va tarbiyaviy qarashlari o'quv-tarbiya jarayonlarini tashkil etishda o'qituvchining shaxsiy fazilatlari, ustozi bilan shogirt munosabatlari, o'quvchining burchi, vazifalari va odobi, o'qitish sharoitlari hamda boshqalar haqida qimmatli fikrlar bayon etilgan.

Ustozi bilan shogird o'rtasidagi munosabatlarga xos ilg'or ta'limiyl va tarbiyaviy qarashlar, shaxsiy fazilarlar o'zaro munosabatlari madaniyatiga xos masalalar buyuk muhandis allomalar Muhammad ibn Ismoil Buxoriy, At-Termiziy ijdolarida hamda tasavvuf falsafasining yirik namoyondalari Abdulholiq G'ijduvoniy, ahmad Yassaviy, Boxobuddin Naqshband, Najmaddin Kubro asarlarida ham keng yoritilgan.

Sharq mutafakkirlarining ilmiy-madaniy meroсиda bayon qilingan bilimlarni egallash va eзgulikka intilish, ustozi-shigird hamkorligi vamunosabatlariга xos tartib-qoidalar, muomalalar madaniyati, insoniy fazilatlarning shakllanishi haqidagi qimmatli fikrlar sharq xalqlari, xususan o'zbek xalqining og'zaki ijodi, eposining (o'zbek xalq maqollarasi, ertaklari, dostonlari, afsonalari, rivoyatlari) uzviyligi asosida tarkib topgan ilmiy-madaniy meroси ekanligini ko'ramiz.

O'zbek xalqining og'zaki ijodi va eposlarida bilimlarni egallash va eзgulikka intilish, mardlik, halollik, kamtarlik, ishonch, sadoqat, do'stlik, adolatlilik, mehnatsevarlik, sabr-qanoatlilik, hamfikrlilik, hamkorlik, oqillik, e'tiqod, hurmat-ehtirom, halol va pok yashash ulug'langan.

Bu vogelikni Alpomish, Kuntug'mish, Farhod va Shirin, Saddi Iskandariy, Yusuf va Zulayho kabi qator xalq dostonlaridagi qahramonlar misoldida ko'rish mumkin.

Qadimgi eposlarda farzandlar – qiz bola yoki o'gil bola bo'lishidan qat'iy nazar bilim va zarur hunar egallahda teng ijtimoiy mavqega ega shaxslar sifatida gavdalananadi, ayollar erlaridan qolishmaydigan jasoratlari qilib tasvirlangan.

Bu muqaddas zaminda yashayotgan har qaysi inson o'z farzandining baxtu saodati, fazlu kamolini ko'rish uchun butun hayoti davomida kurashadi, mehnat qiladi, o'zini ayamaydi. Bu holat Markaziy Osiyo xalqlari, xususan, o'zbek urug'lari va elatlarining o'ziga xos xususiyati sifatida saqlanib qolgan.

“Avesto” hozirgi o’zbek millati, uning etnik ongi va o’ziga xosligining ildizlarini vujudga keltirgan davr (VII asrgacha) uchun qoidalar va qonunlarning to’plami hisoblangan. Mazkur davr o’zbeklarining milliy xarakterini shakllantirgan.”Avesto”da ta’lim va tarbiya quyidagilarni o’z ichiga oлган:

- diniy va axloqiy tarbiya;
- jismoniylar tarbiya;
- o’qish va yozishga o’rgatish.

Bu davrda o’qitish jarayonida hamkorlik qoidalariga alohida e’tibor berilgan, ko’rgazmali qurollardan, hikoya qilish va suhbat usullaridan keng foydalanilgan. Darsda o’quvchilarning o’tilgan mashg’ulotni shovqinsiz takrorlash talab qilingan. Bolalarda ilk yoshlikdan mehnatsevarlik va pedagogika ko’nikmasini shakllantirishga e’tibor berilgan hamda maishiy mehnat turlariga o’rgatilgan.

Kishilar ongiga ma’lumotlilik orqali yaxshiroq kun kechirish g’oyalari singdirilgan. Bu esa o’z navbatida “maktab” va muallim mavqeini yanada mustahkamlagan.

VII – IX asrlarda Markaziy Osiyoning arablar tomonidan fatx etilishi, keyinchalik tub aholining islomga kirishi ijtimoiy voqelik edi. O’sha davrda maktablardagi mashg’ulotlar asosan Qur’onni o’rganishga qaratilgan edi. Maktablardagi mashg’ulotlarni dastlab faqat musulmon arablar o’tkazardi. Keyinchalik tub millatlarning qobiliyatli kishilaridan o’qituvchilar tayyorlana boshlandi va IX asrda islom bazasida milliy maktablar tashkil topdi.

Qur’on – falsafiy, huquqiy bilimlar majmuigina bo’lib qolmay, kishilarni halollik, poklik, axloq-odob, insof-diyonatga da’vat etuvchi muqaddas kitob sifatida qadrlidir. Hadislarda axloqiy yo’l-yo’riqlar talqin etiladi, inson sha’niga dog’ tushiradigan illatlar qoralanadi. Ilm egallah, halollik, to’g’ri so’zlilik, adolatlilik, mehr-oqibat, ota-onani hurmat qilish, nochorlarga g’amxo’rlik, saxiylik, poklik, omonatga xiyonat qilmaslik, diyonat kabi axloqiy fazilatlar ulug’lanadi. Unda shunday devilgan: “Ilm egallang. Ilm sahroda do’st, hayot yo’llarida – tayanch, yolg’izlik damlarida – yo’ldosh, baxtiyor daqiqalarda – rahbar, qayg’uli damlarda – madadkor, odamlar orasida – zebu ziynat, dushmanlarga qarshi kurashda quroldir”.

Imom Buxoriyning “Al-jomi as-sahih” asarining “Ilm kitobi” bo’limida ilm egallah fazilati va xosiyatlari, ilm o’rganish va o’rgatish odobi to’grisida fikr yuritiladi. Bunda ilm egallah odobining 54 qoidasi haqida hikoya qilingan. Ularda Muhammad (s.a.v.)ning ilm o’rgatish va o’rganishga doir pand-nasihatlari o’z ifodasini topgan.

Abu Nasr Forobiy (873-950) jamiyat taraqqiyoti qonunlarini va inson kamoloti bosqichlarini, uni yashash jarayonida baxt-saodatga erishuv yo’llarini o’zining mashhur asari “Fozil odamlar shahri”da bayon etadi.

Forobiyning o’quv-tarbiya jarayonlarini tashkil etish, ustoz va shogird faoliyati haqida shaxsga qo’yladigan talablar, insonlar jamoasidagi o’zaro hamjihatlik, yordam, inson kamoloti va uning jamiyatdagagi o’rni tog’risidagi g’oyalari hozirgi o’quv-tarbiya jarayonlarini takomillashtirishga, ustoz va shogird hamkorlik munosabatlarini to’g’ri yo’lga qo’yishga, yoshlarda kasbiy va shaxsiy fazilatlarning shakllanishida g’oyat muhim ahamiyatga egadir.

Beruniy o’zining didaktik qarashlarida tabiat, jamiyat hodisalariga, turmush voqealariga xolisona baho berish – inson tabiatini anglovchi omil ekanligini ta’kidlab, har bir inson o’z qalbining farmoyishiga ko’ra, ezzulikka intilishi sun’iy obro’, Shuhrat qozonishi uchun muruvvat ko’rsatmasligi kerakligini undaydi. U har bir narsani aniq, sinchiklab o’rganish bilish va shundan

so'nggina bir xulosaga kelish kerakligi va bu o'rinda, ayniqsa, tajribaga asoslanishni alohida uqtiradi, nodonlik, qalloblik, erinchoqlik, ilmsizlik va sun'iy e'tiqodni tanqid qiladi.

Ibn Sino "Tib qonunlari" asarida o'quv tarbiya jarayoni yagona ekanligini ta'kidlab, bolani olti yoshdan boshlab muallimga topshirish xususida fikr yuritadi. Ta'limda o'qitish oddiylikdan murakkablikka qarab boorish qoidasiga amal qilish, shuningdek, bolaga kuchi yetadigan (jismoniy va psixologik imkoniyatlariiga ega) mashqlarni bajartirish amali bu jarayonda katta ahamiyat kasb etishini ta'kidlaydi.

Yusuf Xos Xojibning shoh asari "Qutadg'l bilig" turkey xalqlarining qadimgi ta'lim va tarbiya usullari haqidagi ilk ma'lumotlarni saqlagan muhim manbadir. Bu asar orqali XI asrdagi ijtimoiy va oila tarbiyasi, maktablardagi fan tarmoqlari, o'qitish tizimining o'ziga xos xususiyatlari haqida ko'plab bilimlarga ega bo'lamiz.

Uning fikricha, insonning ulug'ligi aql-idroki, so'zlash qobiliyati, bilimi, uquvi hunarga egaligidadir. Bu xislatlar uning muhtaramligini ham ta'minlaydi.

XV asrda Markaziy Osiyo ijtimoiy-tarixiy davr madaniyati yuqori darajaga yetadi. Shu hududdan jahonga mashhur olimlar, yozuvchilar, jamoat arboblari: Rumiy, Ulug'bek, Ali Qushchi, Lutfiy, Jomiy, Davoniy, Navoiy, Koshify va boshqalar yetishib chiqqan. Samarqandda Ulug'bek madrasasi taskil topadi va u tabiiy-matematik bilimlar markaziga aylanadi.

O'rta asrlarda eng rivojlangan diniy yo'nalish hisoblangan tasavvuf ta'lilotiga ham ta'lim mafkurasining asoslari yoritib berilgan. G. K. Mikrofanov so'fiylik davriga xos tarbiyalash va o'qitishning ayrim insonparvarlik an'analarini yoritgan. Bunday an'analar o'qituvchining so'fiylik ta'lilotiga ifodalangan majburiyatlarida yaqqol ko'rindi. Ana shu majburiylarning eng asosiyları quyidagilardan iborat:

O'qituvchi bolalarni yoqtirishi va ularga o'zining farzandlaridek munosabatda bo'lishi kerak. Shuningdek, ularning zaif jihatlarini doimo tushunishi va ularni shu zaifligi yanada yoqtirilishi lozim.

O'qituvchi o'zining ishi uchun haq ta'ma qilmasligi, in'om olmasligi yoki minnatdorchilik kutmasligi kerak. U o'quvchidan uning o'qishni xohlashi uchun minnatdor bo'lishi zarur.

O'qituvchi hech qachon o'quvchiga maslahat berishdan bosh tortmasligi kerak. Olg'a siljishni o'quvchi emas, o'qituvchi baholaydi.

O'qituvchi o'quvchini yomon yo'lidan qaytarish uchun unga to'g'ridan-to'g'ri emas, balki nimalargadir shama qilib gapirishi lozim.

Ma'lum fanni o'rgatadigan o'qituvchi o'quvchilar oldida boshqa fanlar haqida nojo'ya gap aytmasligi kerak.

O'qituvchi nimani o'rgatsa, o'zi ham shunga amal qilishi shart. U birinchi galda o'qishning samarasini ifodalaydigan jonli misoldir va hokazo.

O'qituvchining ushbu majburiyatlar shu xalqning ta'limiyl qadriyatlarini, uning madaniyatini bosh qadriyat sifatida insonning yuksalishini namoyon etadi.

Jaloliddin Davoniy bolalarning xulq-odobiga salbiy ta'sir etuvchi, qo'pol va badjahl muallimlarning xatti-harakatini qoralaydi. Uning fikricha, muallim aqlli, bola tarbiyasidan xabardor, yaxshi xislatli bo'lishi lozim. Mutafakkir o'qituvchi bilan o'quvchi o'rtasidagi munosabatga to'xtalib shunday deydi: "Agar ota uning jismini tarbiyalashga sababchi bo'lsa, muallim uning ma'naviy tarbiyasini kamolotga yetishuviga sababchidir".

Alisher Navoiy ta'lif-tarbiya jarayonida o'qituvchi-o'quvchi hamkorligi sohasidagi sharh mutafakkirlari an'anasi davom ettiradi va boyitadi. Navoiyning ilm-ma'rifat va ta'lif-tarbiya sohasidagi qarashlarida insonparvarlik g'oyasi markaziy orinda turadi.

Novoiy maktab ahli to'g'risidagi faslda o'qituvchi bilan o'quvchilar o'rtasidagi o'zaro munosabat-hamkorlik odobiga alohida e'tibor bilan qaraydi. O'qituvchining qo'polligi, qattiqqo'lligi o'quvchilar bilan kechadigan munosabatlarining xatti-harakatlarida, albatta, aks etishi rahmsiz, ko'ngli tosh, farosarsizligi va ta'magirligi esa uning yuz-ko'z ifodalaridan, ntqidan osongina uqib olish mumkinligini, buning hammasi esa muallimning aqli kamlikka giriftor bo'lganligini ko'rsatib, endi ular yoshlarni tarbiyalash emas, ularning taqdirida bir qator jumboqlar, buzilishlar bo'lishiga aynan sababchidir, deb ko'rsatadi.

Ta'lif jarayonida o'qituvchi bilan o'quvchilar hamkorligining pedagogik – psixologik xususiyatlarga Sharq mutafakkirlari va ma'rifatparvar ziyyolilari alohida e'tibor bilan qaraganlar. Ayniqsa, o'qub-tarbiya jarayonining asosiy subyektlari hisoblangan ustoz-shogirdlarga xos zaruriy sifat va fazilatlar shakllangan bo'lishi ular o'zlariga tegishli burch hamda vazifalarini sadoqat bilan ado etishlari, bir-biriga mehribon, g'amxo'r, hurmat va izzatda bo'lishi, kechirimliliqi eng muhim qadriyat sifatida e'zozlanadi.

Buyuk ajdodlarimizning ta'lifotlariga mujassamlashgan, o'qituvchi bilan o'quvchilar hamkorligining psixologik xususiyatlarga xos qimmatli ma'lumotlar hozirgi davrda ham mazkur hamkorlikni takomillashtirishga va o'quv-tarbiya samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. L. Beknazarova "O'qituvchi va o'quvchi hamkorligining psixologik xususiyatlari" Toshkent 2008 yil
- Davletshin "Zamonaviy maktab o'qituvchisi psixologiyasi".
- Malla Ochilov "Muallim – qalb me'mori" 2001 yil

ТУРЛИ ХИЛ ФИКРЛАШ БОШЛАНГИЧ СИНФ ЎҚИТУВЧИСИННИНГ ФАОЛИЯТИДА

Аннотация. Мақолада бошлангич синф ўқитувчиларининг ҳозирги замонавий таълимда турли хил фикрлаш туридан фойдаланишлари учун қандай усулларни кўллашлари ва қандай қобилиятларга эга бўлишлари кераклиги ҳақида тушунчалар берилган.

Калит сўзлар: турли хил фикрлаш, конвергент(чизиқли) фикрлаш, дивергент фикрлаш, равонлик, мослашувчанлик, оригиналлик, аниқлик, ижодкорлик, ижодий ёндашув, замонавий дунё таълими, мустақил ижод, муаллифлик дастурлари, ностандарт ғоялар, муваффақияти профессионал фаолият.

Аннотация. В статье представлены концепции того, какие методы используются для использования методов и какие навыки преподавателей начальной школы в современном обучении.

Ключевые слова: Разное мышление, конвергент (линейное) мышление, дивергентное мышление, беглость, гибкость, оригинал, точность, творческий подход, самостоятельное создание, современное мировое образование, независимое творчество, авторские программы, нестандартные идеи, успешная профессиональная деятельность.

Annotation. The article provides concepts of what methods used to use the methods and what skills of primary school teachers in modern teaching.

Keywords: Different thinking, convergent (linear) thinking, divergency, fluency, flexibility, originalness, accuracy, creativity, creative approach, modern world education, independent creation, non-standard ideas, copyright programs, successful activities, successful professional activity.

Бошлангич синф ўқитувчиси энди нафақат кучли ва чуқур билимга эга бўлиши керак, балки анъанавий бўлмаган, мустақил равишда топшириқларни бажаришни ўргата оладиган, таълим жараёнида юзага келадиган муаммоларни ижодий ҳал қилиш усулларини биладиган, яни турли хил фикрлашга эга бўлиши керак.

Кўпинча бошлангич синф ўқитувчилари, чизиқли (конвергент) фикрлаш туфайли, ҳар қандай муаммоларни тўғри ҳал қилиш, мактаб ўқувчиларининг фикрлашларини ривожлантириш учун улар билан биргалиқда ягона ечими топиш усулидан фойдаланишга ўрганишган. Бундай фикрлаш турини аниқ фикр юритишни назарда тутиш билан изоҳлаш мумкин. Фикрлашнинг бир хиллиги вазиятни тўғри идрок этишга, бошқа одамлар фикрларини қабул қилишга тўсқинлик қиласди ва шахсий мулоқотни қийинлаштиради. Конвергент фикрлашдан фарқли ўлароқ, бир-биридан фарқли фикрлаш-бу бир хил саволга кўплаб жавобларни ўз ичига олган турли хил фикрлаш ҳисобланади. Бундай фикрлаш тури олимлар ва тадқиқотчилар томонидан дивергент фикрлаш деб фанга киритилган.

Келинг, “Турли хил фикрлаш” концепциясининг пайдо бўлиш тарихига мурожаат қиласлий. Кўп йиллар давомида турли хил фикрлашни шакллантириш муаммоси психологик ва педагогик адабиётларда бир неча бор такрорланди. Мутахассислар ақлий психологик тадқиқотлар ўтказишиб, турли хил фикрлаш ва унинг ривожланиш омилларининг намоён бўлиш хусусиятларини ўрганиш билан шуғулланишди.

Илим-фанга биринчи марта 1967-йилда “Дивергент фикрлаш” тушунчаси америкалик психолог Ж.Гилфорд томонидан киритилган. Турли фикрлаш-бу муаммони ҳал қилиш йўлларининг ўзгариши бўлиб, бу фикрлаш кутилмаган хуласалар ва натижаларга олиб келади.

Ж. Гилфорд турли хил фикрлашнинг асосий фазилатларини ажратиб кўрсатган: равонлик, мослашувчанлик, ўзига хослик, аниқлик. Келинг, танланган фазилатларнинг ҳар бирини батафсил кўриб чиқайлик.

Равонлик – бу маълум вақт бирлигига кўп сонли ғояларни ифода этиш қобилиятидир, бу ерда дикқат уларнинг сифатига эмас, балки ғоялар сонига қаратилади.

Мослашувчанлик – бу турли хил ғояларни таклиф қилиш ва илгари суриш қобилиятидир. Яъни ечимни бошқа варианtlарига мослаша олишdir.

Оригиналлик – бу таникли, одатий ва аниқ нарсалардан фарқ қиласдиган янги, кутилмаган ғояларни илгари суриш қобилиятидир.

Аниқлик – фикрларни такомиллаштириш ёки тугатилган шаклни бериш қобилияти ҳисобланади.

Гилфорднинг асарларида “Турли хил фикрлаш” тушунчасини “Ижодкорлик” ва “Яратувчанлик” терминларига тенгглаштиради. Ушбу тушунчалар жуда яқин бўлса-да, улар бир-биридан фарқланадиган жиҳатларини кўришимиз мумкин бўлади. Биринчидан, дивергентлик ва ижодкорлик тадқиқотчининг хатти-ҳаракатларини ривожлантиришга ёрдам беради. Бошқа томондан, турли хил фикрлаш ғоялардан иборат бўлиб, уларнинг ярмидан кўп оддий ва мутлақо самарасиз бўлиши мумкин. Турли хил фикрлашни ижодий одамлар эгаллаган махсус фикрлаш деб аташ мумкин. Турли хил фикрлаш ижодкорликда ва турли қобилияtlарда намоён бўлади. Янги ностандарт фикр яратиш, ижод қилиш-ҳар қандай ижоднинг асоси ҳисобланади.

Турли хил фикрлаш инсоннинг барча ижодий имкониятларини ўз ичига олган муаммони ноаниқ, аммо тўғри ҳал қилишни назарда тутадиган фикрлаш туридир.

Кўплаб ўқитувчилар ўқувчининг ижодкорлиги нима эканлигини жуда кам тасаввур қиласдилар. Улар, асосан, ўзларининг ва бошқаларнинг тажрибасини кўпайтиришга, профессионал вазифаларни аниқ бажаришга қаратилган усулларни кўллаб тушунчаларни етказадилар.

Э.В. Бондаревская замонавий дунё таълимида ўқитувчи мустақил ижод қилиши, муаллифлик дастурлари ва методларни ишлаб чиқиш имкониятига эга бўлиши керак, деб ҳисоблайди.

Дивергент фикрлаш учун ва шу фикрлаш усулидан фойдаланиб юқори сифатли самарадорликка эришиш учун бошланғич синф ўқитувчиси кўйидаги хусусиятларни ўзида мужассам қилиши керак:

- фаолиятини ўз кўз ўнгидаги ёки онгидаги акс эттира олиш ва фаолиятида мавжуд бўлган камчиликларни тўғрилашни амалга ошириш;

- педагогик фаолиятда турли ҳодисаларни танқидий баҳолай олиш;
- муаммоларнинг ечимидағи ноаниқлик ҳолатида ўз йўналишини ва бошқача ечимларни белгилай олиш;
- муаммоли характердаги билим ва кўникмаларни янги вазиятга ўтказишни мустақил равишда амалга ошириш;
- стандарт вазиятда янги ўқув муаммоларини кўриш ва кирита олиш;
- муаммони ҳал қилишда муқобил варианктарни яратиб, улардаги ечими кўриб чиқа олиш;
- муаммоларни ҳал қилишда усулларни бирлаштириш ва ўзгартира олиш;
- янги методлар ва технологияларни ишлаб чиқиш.

Натижада, турли фикрлаш бошланғич синф ўқитувчиларига таълим жараёнининг мазмуни жуда ҳам тушунарли қилиб очиб беришга ва дарсларни шаклини, мазмунига кўра турини ҳамда, тармокларини танлашда ёрдам беради.

Шундай қилиб, ривожланган дивергент фикрлаш билан ўқитувчилар бир нечта тўғри ечими топишга ҳаракат қилишади. Айнан бир хил вазифаларни бажаришни бир неча усуллари борлигини, битта муаммони кўп жавоблари мавжудлигини кўришлари мумкин бўлади. Бунинг натижасида, улар жуда кўп ностандарт ғоялар, ижодий фикрлашлар билан чиқишлиари мумкин. Вазиятни таҳлил қилгандан сўнг, улар юзага келган муаммо учун энг самарали ечимларни қабул қилишади.

Турли хил фикрлашни таълим жараёнда қўллаш, шакллантириш-муваффақиятли профессионал фаолият олиб боришнинг асосий шартларидан биридир.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННЫХ ИСТОЧНИКОВ:

1. Игумнова А.С. «Дивергентное мышление в контексте профессиональной деятельности учителя начальных классов»
2. Гилфорд Д. Три стороны интеллекта // Психология мышления. М., 1969. С. 433-456.
3. Шодиев Р.Д., Йўлдошев Ж.Т. “Математика дарсларида дивергент тафаккурни шакллантириш йўллари”. Илмий конференсия материаллари. Таҳлилнинг долзарб муаммолари ва тадбиқлари. Қарши. 2019.
4. Йўлдошев Ж.Т. “Technology for diagnosing divergent thinking”. The Way of Science International scientific journal. Волгоград, 1(71) 2020.

СЕКЦИЯ: ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ НАУКИ

**Primov Rashid Toshqulovich, Xodjaniyazov Islambay Atabayevich
(Qarshi, O'zbekiston)**

MUSIQIY TA'LIMDA PSIXOLOGIK JARAYONLAR

Musiqqa san'ati madaniy hayotimizda keng o'rin tutgan inson shaxsiyatining rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadigan san'atdir. Inson musiqqa bilan ona allasi orqali tanishib umrbod musiqadan zavq olib madad topadi. Musiqqa tarbiyasi nafosat tarbiyasining asosiy qiralaridan biri bo'lib atrofdagi go'zal narsalarni to'g'ri idrok etishda qadirlashga o'rgatadi, inson yuksak did bilan qurolantiradi va ma'nnaviy dunyoqarashini shakllantiradi. Musiqani idrok etish psixologik jarayon bo'lib undan ma'nnaviy oziga olish uchun inson go'zallikni his eta oladigan sof qalb egasi, o'z kasbiga Vataniga mehr qo'ygan yuksak madaniyatli shaxs bo'lmosi kerak.

Mamlakatimizga barkamol avlodni tarbiyalashning muhim tarkibiy qismi bo'lgan nafosat tarbiyasini amalga oshirishda davlat va jamiyat tomonidan qo'yilgan katta ma'sulyatni bajarish musiqqa o'qituvchisidan musiqqa psixologiyasini ya`ni o'quvchilarning psixologik xususiyatlarni yaxshi bilihni talab etadi.

Ma'lumki, musiqqa psixologiyasida musiqashunosning intellektual va fikrash faoliyatini hamda bastakor, kompozitor, ijrochi, tinglovchi o'zaro munosabatlarining psixologik xususiyatlarini o'rganishga muhim o'rin ajratiladi. Shaxs kamolotida ruhiy-psixologik va ma'nnaviyat holatlari katta o'rinn tutadi. Insonning ruhiy yoki psixologik holati deyilganda uning his-tuyg'ulari, kayfiyati, xarakteri, temperamenti, ma'nnaviy holati deganda esa uning aqliy, axloqiy, huquqiy, siyosiy yetukligini, madaniy saviyasi, mehnatga bo'lgan munosabatini ifodalovchi fazilatlari, kasb-kor malakalari, qobiliyatlarini tushuniladi.

"Musiqqa inson his-tuyg'ularini, orzu-umidlarini, hohish-istiklarni o'ziga xos badiiy tilda ifoda etadi va kishining his-tuyg'ulariga faol ta'sir etadi. Musiqqa ham fan, ham san'atdir"⁵

Shundan kelib chiqib aytadigan bo'lsak, ta'lim muassasalarida musiqqa psixologiyasini o'rganish ham zarur bo'ladi. Musiqqa psixologiyasi musiqaviy eshitish qobiliyati, eshitish sezgisining chegaralari, musiqaning lad, ritmikasini his qilish, sezish, musiqaning anglanishi, yodda saqlanishi, ijro etilishi va undan bahramand bo'lish kabi masalani qamrab oladi.

Chunki psixologik ta'lim bo'lajak mutaxassisiga musiqqa san'atining nozik jihatlari va musiqqa pedagogikasi borasida bilim olishga yordam beradi. Ayniqsa, bastakor, ijrochi, musiqashunos, pedagog insonning ichki kechinmalari, uning o'y va intilishlari, tahviliy hisob-kitob va tasavvurlar parvozi, iroda va xotira, xarakter va qobiliyat, shuningdek, musiqachi va tinglovchi shaxsiyatining boshqa psixologik sifatlarini yaxshi bilishi va yetarlicha aniq tasavvur eta olishi kerak.

⁵ Асафьев Б. В. Музыкальная форма как процесс. Л.: Госуд. муз. изд., 1971 г., - 24 стр

“Musiqi san’atidagi asosiy faoliyatlardan biri cholg’u ijrochiligidir. Zo’r ijroni tinglab, lazzat, quvonch, ilhom tuyg’ularini his etamiz yoki yunonlar aytganidek, «katarsis» – ichki, ruhiy poklanish va yangilanish jarayonini boshdan kechiramiz.”⁶

Bundan ko’rinadiki, musiqiy ta’lim-tarbiyaning muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun uning psixologik asoslarini o’rganish o’ta muhimdir. Shuning uchun o’quvchilar musiqiy qobiliyatlarini rijojlantirish barcha musiqiy faoliyatlar jarayonida o’quvchilarni diqqatini toplash, ularning ham aqliy ham hissiy idrok etishini tashkil etish, xotirasini ijodiy taffakurini rivojlantirish, ularning aqliy, irodaviy va boshqa xususiyatlarini shakllantirish kabi psixologik jarayonlardan samarali foydalanishga bevosita bog’liqdir.

Shundan kelib chiqqan holda pedagog N.V. Vetrugina «... musiqi kechinmalari aslini olganda doimo sensor qobiliyatga asoslanadi, chunki musiqi eng oddiy ohanglar, murakkab obrazlar va eng avvalo hissiyotlar orqali idrok etiladi va musiqiy qobiliyat rivojlanadi»⁷, - deb ta’kidlagan.

Musiqi o’qituvchisi musiqi psixologiyasidagi bu jihatlarni yetarli darajada o’zlashtirib olishi kerak. Bu musiqiy tovushlar, obrazlar, tafakkur va hissiyotlar dunyosi kishi ruhini ko’taradi, uni borliq bilan birlashtiradi, gohida tasavvurlar, xayollarning tushuntirib bo’lmas imkoniyatlarini ochadi, dunyoning cheksiz kengliklariga olib ketadi, haqiqatga, idealga yaqinlashtiradi, hayotimizni ma’noli, mazmunli, ma’naviy boy va go’zal qiladi.

“Musiqi san’atidagi asosiy faoliyatlardan biri cholg’u ijrochiligidir. Zo’r ijroni tinglab, lazzat, quvonch, ilhom tuyg’ularini his etamiz yoki yunonlar aytganidek, «katarsis» – ichki, ruhiy poklanish va yangilanish jarayonini boshdan kechiramiz.”⁸

Shu boiz o’quvchilarda insон manaviyatining tarkbiy qismi bo’lgan musiqi madaniyatini shakllantirish musiqi tarbiyasining bosh maqsadi hisoblanadi. Bu maqsadni amalga oshirish musiqi o’qituvchisining kasbiy mahorati va ahloqiy qiyofasiga hamda o’quvchilarning psixologik xususiyatlarini bilish darajasiga bevosita bog’liqdir.

Musiqi madaniyati fani o’qituvchisi har bir sinf o’quvchilarining yosh psixologik xususiyatlarini shuningdek sinfdagi har bir o’quvchining o’ziga xos psixologik xususiyatlarini barcha musiqiy faoliyatlarini bajarish jarayonida tahlil qilishi va umumlashtirish asosida belgilashi lozim.

Ma'lumki umumta’lim maktablarining 1-7 sinflarida musiqi madaniyati darslari o’tiladi. O’quvchilarning darslarga faol qiziqtirish musiqiy qobiliyatlarni rivojlantirish musiqani idrok etish va musiqi savodiga o’rgatib borish asosiy vazifa hisoblanadi. Musiqi o’qituvchisi bu vazifani amalga oshirishda har bir sinf o’quvchilarning psixologik xususiyatlari haqida bilimga ega bo’lishi maqsadga muvofiqdir.

1-sinf o’quvchilarining ma'lum darajada xotirasi yaxshi rivojlanmagan, diqqat e’tiborini noturg’un bo’ladi. O’qituvchi o’quvchilarning hayotiy tajribalari, tasavvurlariga asoslanib musiqi zamirida ma'lum his-tuyg’u, fikr aks etishi haqida tushuntirishi lozim. 2-sinf o’quvchilarining ham diqqati turg’unligi yaxshi shakllanmagan bo’ladi. Musiqi idroki yaxshi rivojlantirishda esa o’yin metodidan foydalanish ijobi natijalar beradi. 3-sinf o’quvchilarining diqqat e’tibori turg’un,

⁶ Qodirov R.G’. Musiqi psixologiyasi. - T.: Musiqi, 2005. -9 bet

⁷ Soipova D. Musiqi o’qitish nazariyasi va metodikasi. Toshkent. 2009. 10-bet

⁸ Qodirov R.G’. Musiqi psixologiyasi. - T.: Musiqi, 2005. -9 bet

xotirasi rivojlanganligi sababli davrs ijodiy yondoshish har bir musiqiy faoliyatni mavzuga bog'lab tushuntirish muhimdir. 5-sinfda esa o'quvchilar psixologik jihatdan ancha o'zgargan diqqat e'tibori ancha turg'unlashgan idrok etgan asarlari haqida fikr yuritadigan bo'ladi. 6-sinfga kelib o'quvchilarda o'spirinlik davri boshlanadi. 7-sinfda esa o'spirinlik davri ko'chayadi. Bu davrlarda o'quvchi organizimiga faol fiziologik o'zgarishlar paydo bo'ladi, ya'nii mu'tatsiya davri boshlanadi. Dars davomida o'quvchilarning diqqat e'tibori tarqaladi shuning uchun ular bilan jiddiy munosabatda bo'lish, do'stona suhbatlashish har bir o'quvchi faoliyatidagi psixologik jarayonlarni o'rganishni talab etadi. Chunki bu yoshda o'quvchilar kattalar munosabatiga jiddiy e'tibor beradi va ular bilan munosabatda bo'lishni istaydilar. Ularning intizomida o'zgarishlar bo'ladi, istagi va qobilyatlari o'rtaida tafavvutlar sodir bo'lib turadi. Ularning mustaqil fikr yuritish va ijodiy xususiyatlardan foydalaniib musiqa san'atiga doir vazifalarni topshirish mumkin. Bularning hammasi musiqa o'quvchilardan yuqori darajada psixologik bilimni talab etadi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki o'quvchilarning musiqiy madaniyatini tarkib toptirish bolalarning psixologik xususiyalarini o'rganish asosida musiqani idrok etishi, undan ma'naviy oziqa olishi bolalar yosh xususiyatlarga mos holda ahloqiy tarbiyaviy maqsadda tizimli ravishda tashkil qilinsa amalyotda samarali natijalar beradi.

O'qituvchining musiqa psixologiyasining o'ziga xos xususiyatlariya va qonuniyatlarini yaxshi bilmasligi yoki e'tibor bermasligi uning o'quv tarbiyaviy jarayonini to'g'ri tashkil etishida, ma'lum maqsadga yo'naltirilgan shaxsni shakllantirishda ijobji natijalar bermaydi.

Musiqa madaniyati darslariga psixologik nuqtai nazar bilan qaraganda, darsning asosiy vazifasi va qator maqsadlarini samarali amalga oshirish musiqa o'qituvchisidan jismoniy, ijodiy mehnat, astoydil kuch-quvvat, his-tuyg'u va irodaviy zo'r berishni talab etadi. Amalyot shuni ko'rsatadiki, barcha musiqa o'qituvchilari ham mакtabda o'quv-tarbiyaviy ishlarni, darslarning maqsad va vazifalarini bir xilda tushunmaydilar.

Aslida o'qituvchi o'z diqqatini o'quvchi shaxsining qabul qilish xususiyatlariiga, diqqati faolligiga, darsning didaktik tomoniga, o'quvchining ma'lumotlilik darajasiga qoniqish doirasiga, musiqa o'qitishning usullarini va optimal metodlarini tanlashga va boshqalarga jalb qilmog'i muhimdir.

Musiqa madaniyati darslarida o'qituvchi o'quvchilarning musiqiy madaniyatini shakllantirishda musiqa o'qitishning asosiy tamoyillarini shakllantirishga, o'quv materialini o'rgatishda tizimli ravishda yondoshib har bir o'quvchining xotirasi, fikrashi, tasavvur qilishi, his qilishi va boshqa psixologik jarayonlari va xususiyatlarini rivojlantirishga xarakat qilmog'i lozim. Yangi mavzuni o'zgartish va mustahkamlashda faqat qaytadan takrorlash emas, balki ijodiy fikr almashish psixologik yo'naltirilgan bo'lmog'i lozim. Yangi bilim berishning asosiy qismi esa o'quvchilarga tayyor ko'rinishda emas mustaqil ijodiy izlanishlari jarayonida o'zlashtirilishi zarur.

Bizning ko'zatishimizga ko'ra, qarashimizcha o'quvchilarning musiqiy madaniyatini shakllantirishda, faoliyatini ko'chayishi o'qishga ijodiy munosabatini shakllanishi, o'quvchilarning o'z-o'zini boshqarish qobiliyatini o'sishi o'qituvchining o'z muhitini yaxshi bilib ish ko'rishi hal qiluvchi rol uynaydi. Shuning uchun o'qituvchi oldida turgan asosiy psixologik vazifalar o'quvchilarga tabiiv shakllantirishda o'qishga ehtiyoj hosil qilish, ongли ravishda faol harakatni

rivojlantirish, aqliy ehtiyojlarni shakkllantirish, o'z-o'zini nazorat qilish, o'z-o'zini tahlil qilish va o'z-o'zini baholashni to'g'ri tashkil etishdan iboratdir.

O'qituvchining yuqori darajadagi psixologik savodi va madaniyati o'quv tarbiyaviy ishlar jarayonida barcha turdag'i psixolgik vazifalarni samarali amalga oshirishga yordam beradi. Shuning uchun o'quvchilar musiqiy madaniyatini shakkllantirish barcha musiqiy faoliyatlar jarayonida o'quvchilarni diqqatini topplash, ularning ham aqliy ham hissiy idrok etishini tashkil etish, xotirasini ijodiy taffakurini rivojlantirish, ularning aqliy, irodaviy va boshqa xususiyatlarini shakllalantirish kabi psixologik jarayonlardan samarali foydalanishga bevosita bog'liqdir.

O'quvchi yoshlarning musiqiy madaniyatini shakkllantirishda ko'zlangan maqsadga erishish uchun ularning ijodiy faolligini oshirish, bilim o'rGANISHI, o'zlashtirishi, intilib-izlanishi va oqibatda musiqiy didi hamda musiqiy ehtiyojini ham o'stirib tarbiyalab borishida o'qituvchining psixologik savodi muhim ahamiyat kasb etadi.

Musiqa murakkab psixologik jarayon hisoblangani bois musiqa darslarida musiqani tinglashda o'quvchilarning diqqat e'tibori kuchayadi, xotirasni, nutqi rivojlanib, dunyoqarashi shakillanib boradi, faolligi oshib yoqtirgan musiqalarini eshitganda zavqlanish hissi paydo bo'ladi. Musiqa tinglash va uni idrok etish musiqa faoliyatining shunday turiki, u bolalikdan tarbiyalanadi va singdirib boriladi. Musiqani tinglash jarayonida idrok etish darajasi tinglovchining umumiy madaniyati va musiqiy tayyorgarlik darajasiga bog'liqdir. Musiqiy asarning to'liq va chuqur idrok etilishi, shuningdek, kompozitor va ijrochi mahoratidan ham dalolat beradi. Ana shu tarzda, tinglash jarayoni tinglovchining tarbiyasi, individual qobiliyatlar va tayyorgarligi bilan ajralmas holat deb xulosa qilish mumkin.

Muxtasar aytganda, musiqani nafaqat san'at turi deb, balki inson psixologiyasini yuksaltiruvchi tabiiy omil sifatida ham o'rGANISH zarur. Zotan, musiqa bizni ona tabiatning turli ohang va tovushlari bilan muomala qilishimizga, ularning mohiyatiga yetish va odamlar o'rtaсидаги муносабатлар билан ichki dunyomiz mutanosibligini ta'minlashga yordam beradi.

ADABIYOTLAR

1. Асафьев Б. В. Музикальная форма как процесс. Л.: Госуд. муз. изд., 1971 г., с. 372
2. Soipova D. Musiqa o'qitish nazariyasi va metodikasi. Toshkent. 2009. 225-bet
3. Qodirov R.G'. Musiqa psixologiyasi. -T.: Musiqa, 2005. - 9 бет

СЕКЦИЯ: СОВРЕМЕННЫЕ ИНФОРМАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ

Mamirxo'jayev Muhammadamin Mavlonbek o'g'li,
G 'aniyev Sanjarbek Fazliddin o'g'li, To'ychiboyev Abbasjon Eraliyevich
(Farg'ona, O'zbekiston)

AUDIO VA VIDEO MA'LUMOTLARNI KODLASH

Annotation. Ushbu maqolada audio va video ma'lumotlar haqida ma'lumotlar berilgan, shuningdek, audio va video ma'lumotlarni siqishning turli usullari haqida tushunchalar ko'rsatib o'tildi.

Tayanch iboralar: audio, video, ma'lumot, format, raqamli, analogli, kodek, multimedia, kadr.

Мамирходжаев Мухаммадамин Мавлонбек угли,
Ганиев Санжарбек Фазлиддин угли, Тойчибоев Аббосжон Ералиевич
(Фергана, Узбекистан)

КОДИРОВАНИЕ АУДИО И ВИДЕОДАННЫХ

Annotation. В этой статье содержится информация об аудио- и видеоданных, а также о различных способах сжатия аудио- и видеоданных.

Ключевые слова: аудио, видео, данные, формат, цифровой, аналоговый, кодек, мультимедиа, кадр.

Mamirkhojayev Muhammadamin Mavlonbek ugli,
Ganiyev Sanjarbek Fazliddin ugli, Toychiboyev Abbasjon Eraliyevich
(Fergana, Uzbekistan)

CODING OF AUDIO AND VIDEO DATA

Annotation. This article provides information about audio and video data, as well as concepts about different ways to compress audio and video data.

Keywords: audio, video, data, format, digital, analog, codec, multimedia, frame.

Audio ma'lumotlar bu bizga ma'lum bo'lgan ozovli xabarlar yoki bir-bir tovush chiqruruvchi ma'lumot turiga aytildi. Audio ma'lumotlardan biz kundalik hayotimizda juda ko'p holarda foydalanamiz. Radio eshitirishlar tinglaganimizda, telfondan birn-bir musiqa eshitganimizda yoki biron-bir audio xabar olganimizda foydalanamanamiz. Audio ma'lumotlardan keng tarzda foydalanishimizga yana bir misol qilib ijtimoiy tarmoqlarni misol qilish munkin.

Audio ma'lumotlar tuli xil formatli bo'ladi, ular quydagilar:

Ovozli fayl formatining uchta asosiy guruhi mavjud:

- 1) Siqilmagan audio formatlari, masalan WAV, AIFF, AU yoki xom sarlavhasiz PCM;

2) Formatlar FLAC, Monkey's Audio (fayl nomini kengaytirish.ape), WavPack (fayl nomini kengaytirish.wv), TTA, ATRAC Advanced Lossless, ALAC (fayl nomini kengaytirish.m4a), MPEG-4 SLS, MPEG-4 ALS, MPEG-4 DST, Windows Media Audio Lossless (WMA Lossless) va Qisqartirish (SHN).

3) Formatlar yo'qotish kabi siqishni Opus, MP3, Vorbis, Musepack AAC, ATRAC va Windows Media Audio Lossy (WMA yo'qotish).

Ularning orasidagi farqni ajratish muhimdir audio kodlash formati, idish xam audio ma'lumotlarini o'z ichiga olgan va audio kodek. Kodek xam audio ma'lumotlarini kodlash va dekodlashni amalga oshiradi, shu bilan birga bu kodlangan ma'lumotlar konteyner faylida saqlanadi. Ko'pgina audio fayl formatlari faqat bitta kodlash ma'lumotlarini qo'llab-quvvatlasada, multimedia konteyner formati (sifatida Matroska yoki Ovi) audio va video ma'lumotlarning bir nechta turlarini qo'llab-quvvatlashi mumkin.

Audio kodlash algoritmi va siqish nisbati. Kodlash algoritmi: Kodlashning roli raqamli ma'lumotlarni saqlash uchun muayyan formatdan foydalanish va ikkinchidan, raqamli ma'lumotlarni siqish uchun ma'lum bir algoritmdan foydalanishdir.

Siquv darajasi: Siqishni kodlashning asosiy indikatorlaridan biri siqishni nisbati: siqishni darajasi odatda birdan kamroq. Siquv algoritmlari uzlukli va uzlusiz siqishni o'z ichiga oladi; kichkina siqishni ma'lumotlarni dekompressiyadan keyin to'liq tiklash mumkin emas va ba'zi ma'lumot yo'qoladi. Siqish nisbati qanchalik kichik bo'lsa, u holda ko'proq yo'qolgan ma'lumotlar va signaldan so'ng buzilish katta bo'ladi. Turli xil ilovalarga muvofiq, PCM, ADPC, MP3, RA va boshqalar kabi turli siqishni kodlash algoritmlari mavjud.

Digital cinema bu 35mm lentaga nisbatan taqqoslaganda yuqori tiniqlikdagi raqamli format hisoblanadi. Uning o'lchami gorizontal pixelsllari 2000 yoki undan yuqoriroq va ketma-ket algoritmgiga asoslanadi. Va odatda kadrining tezligi 24p ammo bir nechta kameralar har xil formatda oladi.

Yuqorida ko'rsatilgan barcha formatlar yuqori sifat hisoblanadi. 1080 ning har bir kadrni 720 ning kadrining o'lchamiga nisbatan ikki marta katta. Ammo 720 sekundiga 60 kadrni taqdim etadi 1080 ning kadr tezligiga nisbatan ikki marta yuqoriroq ma'lumot va 2k digital cinema esa 1080 HD nisbatan biroz kattaroq. Shuning uchun aytish qiyin qaysi format aynan yaxshiroq [2].

Video ma'lumotlarni kodlash. Video kodlash - bu xom videoni ko'plab qurilmalarga mos keladigan raqamli formatga o'tkazish jarayoni. Streaming haqida gap ketganda, videolar ko'pincha gigabayt ma'lumotlardan megabayt ma'lumotlarga siqiladi. Kodlash raqamli kamerada, mustaqil qurilma orqali, kompyuter dasturining bir qismi yoki mobil dasturda amalga oshirilishi mumkin. Kodeklar raqamli videoni siqish uchun ishlatalidi.

Videoni qulayroq hajmga tushirish uchun kontentni tarqatuvchilar kodek deb nomlangan videoni siqish texnologiyasidan foydalanadilar. Kodeklar yuqori hajmli videoni etkazib berish va saqlash uchun qattiq siqib olishga imkon beradi.

To'gridan-to'g'ri "kodek" yoki "kompressor-dekompressor" kodeklari videoga algoritmlarni qo'llaydi va uning faksimilini yaratadi. Video saqlash va uzatish uchun siqilgan, keyin ko'rish uchun dekompressiyalangan.

Streaming audio va video kodeklardan foydalanadi. AV.2 nomi bilan ham tanilgan H.264 eng keng tarqalgan video kodek hisoblanadi. AAC eng ko'p ishlataladigan audio kodek.

Raqamli videoarxitektura video va audiolarni birligida siqish va kodlash uchun mo'ljallangan algoritmlar bilan ishlovchi videofarmatlardan tashkil topadi.

Eng ko'p qo'llaniladigan videoformatlarga Ogg (.ogg Theora for Video, Vorbis for Video), Flash video (.flv), MPEG (.mp4), QuickTime (.mov), Windows Media Format (.wmv), WebM (.webm), and RealMedia (.rm).

Kodek (signallarni kodlash/dekodlash vositalari) zamonaviy videokonferensiya tizimlarining yuragi hisoblanadi. Birinchi kodeklar 1982 yil vujudga kelgan. Ular dastur yoki qurilma ko'rinishida bo'lib, audio - va videosignalarni siqish vazifasini bajaradi va past yoki o'rta tezlikdagi aloqa kanallari orqali uzatish imkonini beradi. Shunday qilib, kodeklar standart tarmoqlar orqali videokommunikasiyani amalgalash imkonini beradi.

Kodeklarning quyidagi turlari mavjud: Theora, H.263,H.264, VP6,VP8.

Tasvir o'lchamlari - Oddiy qilib aytganda barcha raqamli video elektron signallarning jamlanmasi bo'lib kamera tomonidan yozib olinadi: videokaseta, disklar, qattiq disklar, flesh xotiralarda. Signal qanday qilib saqlanadi, barcha raqamli videolar treklardan, kadrlardan, qatorlardan, piksellarda va audio signallardan [1].

Treklar tasvirga olish davomida sizning video kamerangiz audio va video ma'lumotni tasvirga oladi va elektron ma'lumotga aylantiradi va uni media qurilmalarda saqlaydi. Bu ma'lumotlarning har biri alohida trekda joylashadi. Kadrlar Video treklar harakatsiz tasvirlarning yoki kadrlar ketma-ketligidan tashkil topgan. Agar ularni ketma-ketlikda joylashtirsak film hosil bo'ladi. Videoning kadrlari plynokalarining kadrlariga juda oxshash. Harakat illuziyasini berish uchun videoning har bir sekundi harakatsiz tasvirlarning maxsus nomerlaridan tarkib topgan bo'ladi. Kadrlarning tezligi deb bir sekunddag'i harakatsiz tasvirlarning yoki kadrlar soniga aytildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. <https://www.wowza.com/blog/video-codecs-encoding>
2. <https://uz.vwikipedia.com>

Umaraliyev Jamshidbek To'xtasin o'g'li, Ganiyev Sanjarbek Fazliddin o'g'li,
To'ychiboyev Abbasjon Eraliyevich
(Farg'ona, O'zbekiston)

AUDIO VA VIDEO MA'LUMOTLARNI SIQISH

Annotation. Ushbu maqolada audio va video ma'lumotlar haqida ma'lumotlar berilgan, shuningdek, audio va video ma'lumotlarni siqishning turli usullari haqida tushunchalar ko'rsatib o'tildi.

Tayanch iboralar: audio, video, ma'lumot, format, raqamli, analogli, assimetrik, simmetrik.

Умаралиев Джамшидбек Тохтасин уgli, Ганиев Санжарбек Фазлидин уgli,
Тойчибоев Аббосжон Ералиевич
(Фергана, Узбекистан)

СЖАТИЕ АУДИО И ВИДЕОДАННЫХ

Annotation. В этой статье содержится информация об аудио- и видеоданных, а также о различных способах сжатия аудио- и видеоданных.

Ключевые слова: аудио, видео, данные, формат, цифровой, аналоговый, асимметричный, симметричный.

Umaraliyev Jamshidbek Tokhtasin ugli, Ganiyev Sanjarbek Fazliddin ugli,
Toychiboyev Abbasjon Eraliyevich
(Fergana, Uzbekistan)

COMPRESSION OF AUDIO AND VIDEO DATA

Annotation. This article provides information about audio and video data, as well as concepts about different ways to compress audio and video data.

Keywords: audio, video, data, format, digital, analog, asymmetric, symmetric.

Kundalik turmushda ovozli(audio) yoki video ma'lumotlardan keng foydalanamiz. Ya'ni musiqa eshitamiz, kino, kliplar va biror bir dasturni, yangiliklarni tomosha qilamiz. Bunday axborotlar aniq bir ssenariy asosida audio va video tahrirlagichlar yordamida yaratilgandir. Shu singari chet tillarinio'qitishda, o'rgatishda yokio'qitish jarayonini samarali olib borishda ham ko'pincha bunday ma'lumotlarga murojaat qilamiz. Chunki audio va video uyg'unlashgan holda yaratilgan materiallarni qo'llash ya'ni elektron resurslardan foydalanish tilo'rghanish va tilo'rghanishda, umuman darsni tashkil qilish sifatini oshiradi.

Interaktiv vositalar axborotni taqdim qilishning turli xil vositalarini - tekst, statik va dinamik grafiklar, video va audio yozuvlarni bir butun majmuaga birlashtirish imkoniyatini yaratadi, bu esa ta'lim oluvchini o'quv jarayonida faol ishtiroychi bo'lishiga yo'l beradi, modomiki,

axborotlarni taqdim qilish ta'lif oluvchining harakatiga muvofiq javob sifatida yuz beradi.

Multimedialiadan foydalanish axborotnio'zlashtirishning'ziga xos hususiyatlarini maksimal darajada hisobga olishga imkon beradi, bu pedagog tomonidan ta'lif oluvchiga kompyuter vositasidao'quv axborotlarini etkazib berishda juda ham muhimdir. Yaratilayotgan ko'pchilik elektron ta'lif resurslari axborotlarning turli-tuman tiplari bilan ishlashga yo'naltirilgan. Ular fotosur'atlar, tovushli fragmentlar va albatta, animatsiya va video bo'lishi mumkin [1].

Audio va video fayllarni yaratish yoki qayta ishlash ya'ni ularga ishlov berish uchun maxsus dasturlar(tahrirlagichlar) kerak bo'ladi. Hozirgi kunda bunday dasturlarning turi juda ko'p. Quyida biz ularning ayrimlari bilan tanishib chiqamiz.

Odatda audio fayillar - WMA Audio (.wma), WAVE Audio (.wav), MPEG-4 Audio (.m4a), Free Lossless Audio Codec (.flac), Digital Surround Audio (.dts), SUN AU Format (.au), Monkey's Audio Format (.ape), Apple Lossless Audio (.m4a), AIFF Audio (.aiff), AC3 Audio (.ac3), AAC Audio (.aac), OGG Vorbis Audio (.ogg), MP3 Audio (.mp3), MP2 Audio (.mp2) va boshqa kengaytmadan iborat bo'lishi mumkin. Maxsus dasturlar ("video convertor" lar yoki audio tahrirlagichlar) yordamida bir kengaytmadan boshqasiga o'tkazish mumkin bo'ladi.

Ovozli fayllarga maxsus dasturlar yordamida ishlov berish uchun yuqorida keltirilgan kengaytmali fayllar mayjud bo'lish kerak. Agar mayjud bo'lmasa ularni yozish kerak bo'ladi. Masalan, Windows 7 muhitida ovozlarni yozishda o'zining standart dasturidan foydalanish mumkin. Uni "Пуск" - "Все программы" - "Стандартные" - "Звукозапись" ketma - ketlikni bajarib ishga tushiriladi. Ovozni yosish uchun "Начать запись" tugmasini yoki "Alt+S" tugmalarini bosish kerak bo'ladi. Agar shaxsiy kompyuterdan foydalansak unda ovoz yozish uchun mikrofon qurilmasidan foydalanishiz kerak bo'ladi. Agarda foydalanayotgan kompyuterimiz Noutbook bo'lsa, u holda uning mikrofonio'zida joylashgandir. Yuqoridagi vazifalarni bajarib yetarli ma'lumot yozib bo'lingandan so'ng rasmdagi oynadan "Остановить запись" tugmasini yoki "Alt+S" tugmalarini bosiladi. Shundan audio yozuv "WMA" kengaytmasi orqadi ko'satilgan manzil va nom bilan saqlanadi. Ovozli fayilga ega bo'ldik endi unga ishlov berish kerak, yani ayrim qismlarini olib tashlash, tovush balandliklarinio'zgartirish, sifatini oshirish, boshqa ovozlar qo'shish mumkin bo'ladi. Buning uchun maxsus audio tahrirlagichlar kerak bo'ladi [2].

Ko'rinish turibdiki audio fayllarga ishlov berish uchun dasturlarni tanlash imkoniyati keng ekan. Shu kabi dasturlardan biri Sound Forge - ovoz tahrirlagichidir. Bu dasturdning imkoniyatlari juda keng bo'lib yaratilgan ovozli fayllarni yuqoridagi kengaytmalarining biriga keltirish mumkin bo'ladi. Hozirgi kunga kelib bu dastur ovozlar bilan ishlovchi ularni yaratuvchi dasturlar orasida yetakchi hisoblanadi.o'zining tarkibida ovozlarni qayta ishlash uchun hamma imkoniyatlarini mujassamlashtirgan.

Videofayllar. Hozirgi kunda video ma'lumotlarning ikki tipi mayjud: analogli va raqamli. Analogli video videosignalarni uzatishning dastlabki usuli bo'lib, analogli usuldaqи birinchi video formatlardan biri kompozit videosignal hisoblanadi. Kompozit analogli video barcha videokomponentlarni (yorqinlik, rang, sinxronlik va hk) bir signalga birlashtiradi. Bu elementlarni bir signalga birlashtirish hisobiga kompozit video sifati mukammal bo'la olmaydi. Natijada biz aniq bo'limgan ranglar uzatilishiga, tasvirning yetarli bo'limgan aniqligiga va boshqa sifat yo'qotish faktorlariga ega bo'lamiz. Shu sababli kompozit video turli video

komponentlari mustaqil signallar sifatida namoyon bo'luvchi komponentli videoga tezda yo'l bo'shatib berdi. Gap shundaki, inson ko'zi yuqori yori tilganlikda ham aktiv va tayanch ranglar (R, G, B) ni qabul qiluvchi yorug'lik sezuvchan elementlardan tashqari deyarli to'liq qorong'ulikda ham aktiv va yoritilgan obyektnigina qayd qiluvchi elementlarga ega. Buning natijasida ranglar xususiyatidan ko'ra obyekt yorqinligi qabul qilish uchun muhimroq hisoblanadi. Bundan tashqari uzatilayotgan axborot hajmi ham qiymatga ega: hajm qancha kichik bolsa, uzatuvchi tizim ham shuncha arzon va sodda bo'ladi.

Analogli video haqida qisqacha ma'lumot. Analogli video - Televideniyada qo'llaniladigan video tipi. Ekrandagi tasvir lyuminofor material bilan qoplangan, ma'lum to'lqin uzunligida, ya'ni aniq bir rangda nur tarqatuvchi ekran bo'ylab elektron nurlarning harakati davomida hosil qilinadi. Bu jarayon skanerlash deb ataladi va qatorlar (gorizontaliga) hamda kadrlar (vertikaliga) bo'yichao'tkaziladi. Harakatli video hosil bo'lishi uchun sekundiga bir nechta kadrnini skanerlash zarur. Televizorlarda kadrlar sekundiga bir nechao'nlab chastotada almashadi.

Hozirgi kunda uchta asosiy rangli televidinie standarti mavjud:

✓ NTSC (National Television Standard Committee - milliy television standartlar komiteti) amerika standarti, kadrdagi satrlar soni 525, chastotota 60 GGs

✓ PAL (Phase Alternation Line - o'zgaruvchan fazali satrlar) nemis standarti, kadrdagi satrlar soni 625. chastota 50 GGs;

✓ SECAM (Sequentiel couleur avec memoire - xotirali ranglar ketma-ketligi) fransuz standarti, kadrdagi satrlar soni 525, chastota 50 GGs.

Standartlar qo'llanilayotgan modulyatsiya va chastota qiyatlari bilan bir-biridan farq qiladi.

Raqamli video - ma'lumot raqamli ko'rinishda saqlanuvchi tasvir yoki tasvirlar to'plami. Unda raqamli signallar va xalqaro television va analogli videooda qo'llaniladigan tasvirni ekranga chiqarish standartlardan farq qiluvchi standartlar qo'llaniladi. Raqamli video analogli videoga nisbatan quyidagi ustunliklarga ega: bu texnologiya tasvir namoyishidagi to'siq va buzilishlarni minimallashtirib, tasvirlardan nusxa olishdagi sifatni saqlaydi, sifatli ovoz yozadi, tasvirdagi piksellar miqdori ikki marta ko'proq bo'ladi, videoyozuvlarni tezkor va oson tahrirlash imkoniyatiga ega va hk.

Zamonaviy texnikalarda qabul qilingan videoni raqamlashtirishni 10 bitli raqamlash, 13.5 MGs chastotali yorqin signallar diskretizatsiyasi, 6.75 MGs chastotali ikkita xilma-xil rangli kanallar diskretizatsiyasi tashkil qildi. Oxirgi vaqtarda television va kompyuter videolarini birlashtirish tendensiyalari kuzatilmoida. Analogli videotasvirlarni raqamli shaklgao'tkazish maxsus platalar yordamida amalga oshirilmoida. Raqamli va analogli videoning bir-biriga yaqinlashtirilishi analogli signalarning multimedia kompyuterlari bilano'rin almashishiga olib keladi. Dastlab video analogli formatdan raqamli formatgao'tkazilib, kompyuterning xotira qurilmalaridan biriga yoziladi. Bu qattiq disk, CD, DVD yoki ixtiyoriy boshqa qurilma bo'lishi mumkin. Bunda videoni kompyuterdag'i dasturlar yordamida namoyish etish imkoniyati paydo bo'ladi. Raqamli videoga qo'yilgan oxirgi qadamlar ham aynan raqamli va analogli videolar yaqinlashtirilishini ta'minlovchi DVD-Video va HDTV (High Definition TV - yuqori rezreshenedagi televidenie, bir qator davlatlar tomonidan ishlab chiqilayotgan yangi format) standartlarining yaratilishi bo'ldi.

Videoma'lumotlarni siqishning asosiy ko'rinishlari:

- oddiy, real vaqt rejimida;
- simmetrik va asimmetrik;
- sifat yo'qotish yoki yo'qotmaslik holatida;

Videopotokni siqish yoki kadrlar bo'yicha siqish. Oddiy siqish (real vaqt rejimida).

Ko'pchilik tizimlar videoni raqamlashtirish bilan bir qatorda ularni siqadi ham. Bu operatsiyani sifatli bajarish uchun maxsus quvvatlari prossessor talab qilinadi, shu sababli ko'pchilik kompyuterlardagi video kiritish/chiqarish platalarini to'liq metrajli videolarni tahrirlash imkoniyatiga ega emas va ko'pincha kadrlarni tkazib yuboradi. o'tkazib yuborilgan kadrlar videotasvirlar silliqligini buzadi. Bundan tashqari kadrlaro tkazib yuborilishi ovoz va tasvir sinxronligini buzilishiga olib keladi. Shu sababli raqamlashtirishda qo'llanuvchi videoplata sekundiga 24 kadrdan kam bo'lмаган tezlikni ta'minlashi va kadro tkazib yubormasligi zarur. Bu tasvir buzilishiga yo'l qo'ymaydi.

Simmetrik va asimmetrik siqish. Farq videoni siqish va dekompressiya uslubi bilan bog'liq. Simmetrik siqish 640x480 razresheniya bilan sekundiga 30 kadr tezlikda videofragmentni namoyish etishni taqozo etadi, agar uni raqamlashtirish va yozish xuddi shu parametrlar bilan bajarilgan bo'lsa. Asimmetrik siqish - bu yetarlicha kattaroq vaqtida sekundiga videoni qayta ishslash jaryoni. Asimmetriklik darajasi odatda nisbat ko'rinishida beriladi. 150:1 nisbat siqilgan videoning bir minuti real vaqtdagi taxminan 150 minutga to'g'ri kelishini bildiradi. Asimmetrik siqish sifatli videoga va uning namoyishi tezligidagi optimallikka erishish uchun juda qulay va samarali uslub hisoblanadi. Lekin bu uslubda to'liq metrajli rolikni kodlash juda ko'p vaqt olishi mumkin, shu sababli ham bu kabi jarayonlar ixtisoslashtirilgan kompaniyalar tomonidan bajariladi [3].

Sifat yo'qotiladigan yoki yo'qotilmaydigan siqish. Sifat yo'qotmasdan siqish usullari ko'p emas: ko'p uchraydigan baytlar kombinatsiyasi kichikroq bitililariga yoki aniq qiymatlar ketma-ketligi kodlarga almashtiriladi. Siqish darajasi fayl tipi va uzunligiga juda bog'liq bo'ladi. Ixtiyoriy holatda ma'lumotlarga dekompressiya (manba ma'lumotlarini tiklash) uchun ma'lumotlar qo'shiladi. Shu sababli agar fayldagi ma'lumotlar tanlangan algoritmda yomon siqilsa, fayl hajmi hatto oshishi mumkin. Hatto muvaffaqiyatli holda ham sifat yo'qotishsiz kompressiyaning darajasi uncha yuqori bo'lmaydi. Ikki marta siqishning o'zi muvaffaqiyat.

Shu sababli odatda video uchun sifat yo'qotish holati qo'llaniladi, go'yoki ko'zga sezilmas ma'lumotlar tashlab yuboriladi. Siqish koeffitsiyenti qancha yuqori bo'lsa, video sifati shuncha zarar ko'radi. Barcha siqish uslublari ba'zi sifat yo'qtishlarga olib keladi. Hatto ular ko'zga sezilarli darajada bo'lmasada, manba va siqilgan material orasida doim farq bo'ladi. Raqamli video bilan ishslashda professionallar siqish koeffitsiyentiga alohida e'tibor qaratishadi. Uni asimmetrik siqish koeffitsiyenti bilan chalkashtirmslik kerak.

Bundan tashqari, video sifati faqatgina siqish algoritmiga bog'liq emas, sifat raqamliveoplata parametrlariga, kompyuter konfiguratsiyasiga va hatto dasturiy ta'minotga bog'liq bo'ladi. Videotasvirlarni raqamlashtirish uchun plata tanlanayotganda raqamli video parametrlarini boshqarish imkoniyatiga alohida e'tibor qaratish kerak. Videolarni raqamlashtirish va siqish uchun moljallangan yaxshi tizim videotizimning texnik va dasturiy qismlari uchun muhim parametrлari ustida amallar bajara olishi kerak. Ko'pchilik hollarda videoning namoyish etish tezligi (kadrlar chastotasi/s) hal qiluvchi qiymatga ega bo'ladi, lekin bunday hollarda to'liq ekranli rejimda ishslashni rad etishga to'g'ri keladi. Boshqa hollarda esa

sekundiga 15 kadrli tezlik yetarli bo'ladi, lekin bunda kadrlar sifati ideal bo'lishi lozim. Videolarni raqamlashtirish va siqish qurilmalari va dasturiy ta'minoti bu operatsiyalarini boshqara olishi kerak. Siqish uslublari juda ko'pchilikni tashkil qilishiga qaramasdan videolarni siqishning faqat MPEG (MPEG-1, MPEG-2 va MPEG-4) xalqaro standarti tan olingan.

MPEG texnologiyasida potokli video siqish uslubi qo'llaniladi, bunda har bir kadr alohida qayta ishlamaydi, video fragmentlarning dinamiko'zgarishlari tahlil qilinadi va ortiqcha ma'lumotlarni yo'qotish amalga oshiriladi. Ko'pchilik fragmentlarda tasvir foni yetarlicha stabil qoladi, harakat esa oldingi fonda amalga oshiriladi. Shu sababli MPEG algoritmi siqishni manba (kalit) kadrini yaratishdan boshlanadi. Qolgan tasvirlarni tiklashda tayanch kadr vazifasini o'tagan holda ular navbati bilan har 10-15 kadrga ko'chirib boriladi. Faqat ular orasida joylashgan ba'zi tasvir fragmentlario'zgarishga duch keladi. Aynan ana shu farq siqishda saqlanib qoladi. MPEG-texnologiyasini qo'llash natijasida ba'zi sifat yo'qotishga olib kelsada, 200:1 dan ham yuqori siqish koeffitsiyentiga ega bo'sih mumkin [3].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Zamonaviy audio video texnologiyalar modulli bo'yicha o'quv uslubiy majmua "Toshkent-2016" - TATU, «Audiovizual texnologiyalari» kafedrasi assistenti O. Narzulloyev
2. "Video production" V-nashri. Jim Owens Gerald Millerson 225 Wyman ko'chasi, MA 02451, USA in 2013, 385 bet.
3. Telekommunikatsiya uzatish tizimlari R. I. Isayev, R. K. Atametov, R. N. Radjapova

СЕКЦИЯ: ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ НАУКИ

**Sadikov Erkin
(Bukhara, Uzbekistan)**

THE ENGLISH LANGUAGE: STANDARD OR NON-STANDARD?**Abstract**

There have been a number of approaches to determine the term of “Instructed language learning” as a constituent part of SLA. Instructed language learning is a continuous process that detects different types of second language learning that may occur as a consequence of the teaching of the foreign language. This article deals information about the spread of standard English and its developing steps in Uzbekistan.

According to Ellis (2005) instructed language learning must be a precise, productive and fruitful guide to implementing activities into the second language classroom. Subsequently, the author suggests ten specific principles on second language learning to guide educators in teaching English as a second language. He outlines the following vital strategies, such as progressing rule-based and formulaic based language, focus on meaning and form, developing explicit and implicit notion or knowledge, a comprehensible input and practical procedures, personal variations, and evaluating students' proficiency and performance.

Another topic which must be investigated is World Englishes that has been a reflection and combination of different kinds of Englishes around the world. World Englishes are particularly exact differences of English that have developed in regions of Asia, Africa, Oceania, where there is stretched out backgrounds of English being commonly recognized in education, business, administration and tourism.

As it is already considered to be a global language we can illustrate some important factors in order to show its clear evidence. B. Kachru (1985) introduces three precise circles: inner, outer and extended to highlight the difference among the Englishes. Thus, we can emphasize that there is no correct English as it has diverse features.

As transforming identity and target cultural attachment performance are vital aspects in the language learning process, so today we will debate on the effects of learning English on the culture and identity change in Uzbek EFL learners.

The history of learning English in Uzbekistan goes back to many years ago. There have always been English teachers and English classes in Uzbekistan. However, the arrival of new technologies, for example, computers, the internet, cell-phones and other factors affected English learning in Uzbekistan like many other countries in the world.

These days, people feel an increasing need to learn English as they have more interactions with foreigners. Unfortunately, public schools have not been successful in helping Uzbek students to be proficient in English.

Consequently, a lot of private language centers are mushrooming. A lot of Uzbeks have become interested in going to such educational areas as they claim that by joining them anyone will be able to speak English in a few months. As learning English is becoming very common among Uzbek students, Western culture is catching their attentions too. Now there are a lot of

